Chunonchi, T.Vizgo, A.Malkeeva asarlarida o’zbek xalq cholg’ulari, ularning tarixi, F.Karomatli tadqiqotlarida esa cholg’ularning ijro imkoniyatlari, mahalliy uslublari, sozlanish va diapozonlari har tomonlama o’rganiladi. Ayniqsa, mazkur uch olim hammualliflikda yozgan, Germaniyada nashr qilingan «Muzikqeca hiyechte in Bildern, Bd.III» kitobi cholg’u san’atiga izchil yondashuv, batafsilligi bilan o’zbek etnocholg’ushunoslik fani taraqqiyotiga muhim hissa bo’lib qo’shildi.

O’zbekistonda mavjud bo’lgan nashrlardan tashqari olimning cholg’u san’atiga oid bo’lgan o’nlab ilmiy maqolalari xorijda ham nashrdan chiqqan.

Zamonaviy musiqashunoslikda O’zbekiston xalqlarining musiqiy cholg’ulari xususida shu choqqacha alohida va maxsus ilmiy tadqiqotlar yaratilmaganligini ta’kidlash joiz. Holbuki, ushbu mavzuning barcha milliy va mahalliy muammolarini o’rganish, urma cholg’ularning tuzilishi, uslubiy, nazariy va amaliy jihatdan yaxlit tadqiq etish mustaqillik mafkurasi va milliy-madaniy qadriyatlarni tiklash masalalari matnida dolzarb ahamiyat kasb etib, milliy an’analarini uyg’un rivojlanish vazifalari bilan ham bevosita bog’liqligini ta’kidlamoq kerak. Shu bilan birga milliy musiqa muammolarini ishlashda rus va g’arb musiqashunoslarining munosib ulushlari mavjudligini ta’kidlamoq kerak. Ammo, qator izlanishlar zahirida milliy musiqa an’analarini soxtalashtirish, milliy o’zlikdan uzoqlashtirish maqsadi ham ko’zlangan edi.

A.Petrosyans rahbarligida milliy cholg’ularimizni “qayta ishlash” natijasida ularning sadolanish xususiyatlari va an’anaviy ko’rinishlari o’zgartirildi, laboratoriya

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

sharoitida milliy cholgʻular sadosidan uzoq boʻlgan cholgʻular va ularning «oilalari» yaratildi.

Bevosita Markaziy Osiyo xalqlarining musiqiy merosi rus olimlari V.Belyayev, V.Uspenskiy, Ye.Romanovskaya, N.Mironov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida ham oʻz ifodasini topgan. Yuqorida koʻrsatilgan olimlarning tadqiqotlari shuni koʻrsatadiki, aynan urma cholgʻularning paydo boʻlishi va rivojlanishi tarixi, xomashyolari, oʻzgarish xususiyatlarining ohangga taʼsiri, xalq orasida tarqalishi va turlanishi, ularning musiqa sanʼatidagi oʻrni va boy imkoniyatlari maxsus ilmiy tadqiqot sifatida oʻrganilmagan. Bugungi kunda qadar maʼnaviyatni yuksaltirishda sanʼat va adabiyotni tutgan oʻrni masalasi sharq va gʻarb olimlari tomonidan ham turli baxslar orqali oʻrganib kelingan va kelinmoqda.

## ADABIYOTLAR

1. Каюмов И. Ф. Психологические истоки музыки //Academy. – 2020. – №. 11 (62). – С. 56-58.
2. Каюмов И. Ф., Жураева М. Место музыки в воспитании духовно-нравственных качеств учащихся 5-7 классов общеобразовательных школ //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 3 (48). – С. 17-19.
3. Kayumov I. F. Values and aesthetic factors in the formation of culture and art //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – Т. 12. – №. 1. – С. 10.
4. Kayumov I. F. XALQ QOʻSHIQLARI ASOSIDA BOSHLANGICH SINF OʻQUVCHILARINING NUTQIY MALAKASINI OʻSTIRISH USULLARI //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 635-640.
5. Каюмов И. Ф. Санъатнинг турлари ва уларнинг тарбиявий аҳамияти //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 849-854.
6. Fayzullaevich Q. I. Culture and art values and aesthetics in formation factors. – 2021.
7. Ugli O. H. S. Characteristics of 21st century compositional creativity of Uzbekistan //European Journal of Arts. – 2023. – №. 2. – С. 38-42.
8. Каюмов И. Ф. ВАЖНОСТЬ ВНЕКЛАССНЫХ ЗАНЯТИЙ В РАЗВИТИИ МУЗЫКАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ //Academy. – 2021. – №. 3 (66). – С. 51-53.
9. Каримов О. И. Значение специфических особенностей и воспитательных возможностей узбекских народных инструментов //Academy. – 2020. – №. 3 (54). – С. 78-80.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

10. Каримов О. И. Профессиональные музыкальные взгляды будущего учителя музыки //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 22-2 (100). – С. 17-20.
11. Каримов О. И. Садриддин Айни-знаток и любитель народной музыки //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 13 (138). – С. 21-24.
12. Karimov O. J. I. Tanbur sozining paydo bo 'lishi va milliy cholg 'u ijrochiligidagi o 'rni //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 767-771.
13. Каримов О. И. Бўлажак мусиқа ўқитувчиларида маънавий-ахлоқий сифатларни шакллантириш //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 377-381.
14. Ходжаев Р. Р., Каримов О. И. Подготовка будущих учителя музыки. Тренировка на скрипке для рефлексии мышц //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 1419-1423.
15. Каримов О. И., Ахмедова Ф. И. Қ. Айтим (вокал) асарлари мисолида кўшиқ ўргатиш имкониятлари //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 899-910.
16. Islamovich K. O., Shukhrat S. S. The Role of Music in Forming a Perfect Human Personality //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 33. – С. 72-75.
17. Islamovich K. O., Durdimurotovna Q. G. Formation of Vocal-Choir Skills in Music Lessons //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 33. – С. 57-62.
18. Islamovich K. O., Raufovich K. R. Scientific-Historical and Theoretical-Pedagogical Principles of the Violin //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 33. – С. 67-71.
19. Каримов О. И., Шарипова С. Ш. К. Место искусства музыки в формировании идеальной личности человека в дошкольном заведении //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 692-698.
20. Islomovich K. O. et al. Musiqa darslarida o 'quvchi yoshlarda ong, milliy tafakkurni o 'stirishni shakllantirishning vositalari //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 264-268.
21. Islomovich K. O., Raufovich X. R. Xorijiy ilg 'or kompozitorlar tajribalarida dmitriy kabalevskiy va karl orff tomonidan taklif Qilingan konsepsiyalar texnologiyasining Musiqa to 'garaglarini shakllantirish va rivojlantirishga oid nazariy-pedagogik va psixologik asoslari //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 257-263.
22. Ибодов У. Р. ИНСТРУМЕНТАЛЬНАЯ МУЗЫКА КАК ОРУДИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ВЛИЯНИЯ НА ЧЕЛОВЕКА //Рекомендовано к печати Ученым советом Института психологии имени ГС Костюка НАПН Украины (Протокол № 14 от 28 декабря 2020). – 2020. – С. 336.



# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

23. Ибодов Уктам Расулович РОЛЬ КЛАССИЧЕСКОЙ МУЗЫКИ В УРОКАХ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ // Academy. 2021. №2 (65). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-klassicheskoy-muzyki-v-urokah-muzykalnoy-kultury> (дата обращения: 26.10.2023).

24. Ибодов Уктам Расулович СПОСОБЫ ОБУЧЕНИЯ МУЗЫКАЛЬНОЙ ГРАМОТЕ НА УРОКАХ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ // Наука, техника и образование. 2021. №2-1 (77). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sposoby-obucheniya-muzykalnoy-gramote-na-urokah-muzykalnoy-kultury> (дата обращения: 26.10.2023).

25. Уктам Расулович Ибодов МУЗЫКАЛЬНЫЕ ФОРМЫ НА ОСНОВЕ ИНДИВИДУАЛЬНОЙ МОДЕЛИ КОМПОЗИЦИИ // Scientific progress. 2021. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/muzykalnye-formy-na-osnove-individualnoy-modeli-kompozitsii> (дата обращения: 26.10.2023).

26. Салимов Ш. Ш. О., Каримов О. И. Связь общей теории музыки с психологическими особенностями в ракурсе сольфеджио // Science and Education. – 2024. – Т. 5. – №. 1. – С. 214-219.

27. Mirshayev Ulug‘bek Muzafarovich. “TALABALARNING MUSIQIY FAOLIYATIDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISHDAGI O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLAR”. Journal of Innovation, Creativity and Art, May 2023, pp. 89-93, <http://jica.innovascience.uz/index.php/jica/article/view/321>.

28. Mirshayev Ulugbek Muzafarovich. “DISTINCTIVE FEATURES IN THE ORGANIZATION OF INDEPENDENT WORK IN THE MUSICAL ACTIVITIES OF STUDENTS”. Academia Science Repository, vol. 4, no. 04, Apr. 2023, pp. 994-9, <http://academiascience.com/index.php/repo/article/view/102>.

29. Миршаев У. М. МУЗЫКАЛЬНЫЕ ПРЕДПОЧТЕНИЯ МОЛОДЫХ ЛЮДЕЙ С РАЗНЫМ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫМ ОБРАЗОВАНИЕМ // PSIXOLOGIYA Учредители: Бухарский государственный университет. – №. 3. – С. 100-103.

30. Миршаев У. O‘QUVCHI-YOSHLARNI MUSIQA ORQALI KOMIL INSON QILIB TARBIYALASH // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.

**ESTETIK TARBIYA BOLALARNI KOMILLIKKA YETAKLOVCHI  
VOSITA SIFATIDA**

**Sidiqova Yulduz Sobirovna  
Osiyo Xalqaro universiteti**

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi

tel:+998914164032

[yulduzsobirova048@jmail.com](mailto:yulduzsobirova048@jmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda estetik tarbiyani shakllantirish yo’llari vositalari tahlil qilingan.

**Kalit so‘z:** Estetika, estetik tarbiya, vositalar, mashg’ulotlar, ijodkorlik.

**Аннотация:** В данной статье анализируются средства формирования эстетического воспитания у детей дошкольного возраста.

**Ключевые слова:** Эстетика, эстетическое воспитание, инструменты, обучение, творчество.

**Abstract:** This article analyzes the means of developing aesthetic education in preschool children.

**Key words:** Aesthetics, aesthetic education, tools, training, creativity.

Insoniyat go’zallikni butun hayoti davomida qadrlaydi va yaratadi. Go’zallik madaniy tarixiy tajribaning bir qismi hisoblanadi. Estetik tarbiya juda keng tushuncha bo’lib, unga tabiat, mehnat, ijtimoiy hayot, turmush va san’atga estetik munosabatni tarbiyalash kiradi. Estetik tarbiya (nafosat tarbiyasi) - bu bolalarga voqelikdagi, san’atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go’zallikni idrok qilish hamda to’g’ri tushunishga o’rgatish, ularning badiiy didini o’stirish, ularda go’zallikka muhabbat uyg’otish va hayotga go’zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir. Nozik didli bo’lish, go’zallikni fahmlay va qadrlay olish, badiiy madaniyatni tushunish, o’z hayotini go’zallik qonunlari asosida qura olish — komil insonning eng zarur fazilatidir.

Estetik tarbiya maktabgacha yoshdan boshlab shakllantiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda odob va nafosat tarbiyasi o’zaro chambarchas bog’liq holda amalga oshiriladi. Chunki nafosat tarbiyasining natijasi axloq-odobda, chiroyli xatti-harakat, go’zal munosabatda va hayotga, kelajakka, insonlarga, tabiatga muhabbatda ko’rinadi. Estetik tarbiya orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda kamtarlik hislati tarkib topadi. Bu hislat kishilarning eng go’zal belgisidir. Estetik va axloqiy tarbiyaning o’zaro bog’liqligi shundaki, kishining go’zallikni idrok etishdan quvonishi uning boshqa kishilarga yaxshilik qilganidan xursand bo’lishiga o’xshab ketadi. Aksincha, go’zallikni ko’ra bilmaslik undan zavqlanmaslik yomon ishlarni qilishga olib keladi. San’atning tarbiyaviy ahamiyati, kuchi shundaki, u insonda hayotdagi voqealarni, hodisalarni chuqur his-hayajon bilan idrok etishni shakllantiradi. Estetik tarbiyaning vazifalari tarbiyaning

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

umumiy maqsadlaridan kelib chiqib, bolalarning yosh imkoniyatlariga qarab belgilanadi. Estetik tarbiya vazifalarini hal etish bolalarda tashabbuskorlik, ma'lum natijalarni oldindan bilish, ularga intilish, orzu qila bilish kabi sifatlarni shakllantirish bilan uzviy bog'langandir.

## **Estetik tarbiyaning vositalari:**

1. Bolalarning tasviriy faoliyatlari. Badiiy faoliyat (rasm chizish, loyihalash, ilovalar tuzish, modellashtirish va boshqa tadbirlar) o'zini namoyon qilish qobiliyatini shakllantirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini ochib berish uchun asos yaratadi. Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini tarbiyachi kuzatuvlari asosida payqashi va bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va shart -sharoitlar yaratish tarbiyachining vazifasi bo'lib hisoblanadi.

2. Bayramlar ko'ngilochar tadbirlar. Bayramlar ko'ngilochar tadbirlar bolalarning estetik tarbiyalashning muhim vositasidir. MTTda o'tkaziladigan bayramlar bolalarga chuqur ta'sir etadi. Bayramning tarbiyaviy kuchi va o'ziga xosligi uning g'oyaviy va estetik mazmuni san'atning turli ko'rinishlari bilan bog'liq bo'lishidadir. Har qaysi bayram o'z g'oyasiga ega bo'lib, u bolalarga yorqin obrazlar orqali ta'sir ko'rsatadi. Bayramlarda bolalar bayramlarga mos kiyinishadi, sher va qo'shiqlarni aytish va aytish jarayonida aytish ifodasiga e'tibor berib aytish, qo'shiqlarga raqsga tushganda esa qo'shiqqa mos harakatlar qilish va harakatlarni bajarish jarayonida chiroyli bajarish, nozik harakatlar bilan bajarishga o'rgatish bularning barchasi maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda estetik tarbiyani tarbiyalash bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladigan tadbirlar, ertaliklar bolalarning ma'naviy kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi. Estetik tarbiyaning vositalaridan biri qo'g'irchoq teatridir. Uning nihoyatda kuchli ta'sir etishi uning soddaligi, odatdan tashqari jo'shqinligi va qo'g'irchoqligi, o'yinchoqligi, shuningdek, badiiy so'z, musiqa, ashula, raqs, tasviriy san'at kabi tarkibiy qismlarning uzviy jipslashib ketganligi kishi ko'zi o'ngida yaqqol namoyon bo'lishidadir. Qo'g'irchoq teatrini bolalar faqat tomosha qilibgina qoimay, balki unda o'zlari ham qatnashadilar. Bundan tashqari, qo'g'irchoq teatri, soya teatri, barmoq teatri ko'rsatish ham bolalarni estetik tomondan tarbiyalashda alohida o'rin egallaydi. Bu o'yinchoq, qo'g'irchoqlar bolalarga tanish bo'lsada, ularni tarbiyachi qo'li yordamida harakatga keltirib, badiiy so'zlar bilan qo'shib olib borishi natijasida ular bolaning ko'z o'ngida jonlanadi, boshqacha tus oladi va bolalar ertak mazmunini chuqur idrok eta boshlaydilar. MTTda kattalar rahbarligida bolalar tomonidan konsertlar, bayramlar, kichkintoylarning tug'ilgan kunlarini nishonlash bolalarda quvonchli hislarni uyg'otadigan, mazmunli va ularning xotiralarida uzoq vaqt saqlanib

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

qoladigan qilib tashkil etilishi kerak. Badiiy didning shakllanishida kitoblar muhim rol o'ynaydi. Kitoblar faqat bolalarning yoshiga mos, mavzu va mazmuni bilangina emas, balki shu bilan birga bayon qilish usuli hamda bezatilishi bilan ham ajralib turishi juda muhimdir. Kichkintoylar, ayniqsa 2-3 yoshli bolalar uchun chiqarilgan kitoblarda so'zlardan ko'ra rasmlarning ta'siri ayniqsa, katta bo'ladi. Bola kitobdagi rasmlarni qayta-qayta o'z o'rtoqlariga, kattalarga, qo'g'irchog'iga «o'qib» berish bilan uning mazmunini o'z xotirasida mustahkamlaydi. Kitobdagi chiroyli, yopqin rasmlar bolalarning badiiy didini tarbiyalaydi

3. Ma'lum maqsadga qaratilgan rejali ravishda amalga oshiriladigan ta'lim maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik jarayonida muhim ahamiyatga ega va u kundalik hayotda, o'yinda, mehnatda, sayrlarda, mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. Mashg'ulotda ta'lim va tarbiya vazifalari hal etiladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishish, nutqni o'stirish va savod o'rganish, matematika, jismoniy madaniyat, tasviriy faoliyat, musiqa bo'yicha eng oddiy tasavvur va bilimlarni, malaka va ko'nikmalar sistemasini egallab oladilar. Qachonki ta'lim va tarbiya sistemali ravishda amalga oshirilsagina u rivojlantiruvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Jumladan bolalarni estetik jihatdan tarbiyalashda ta'lim va tarbiyaning uyg'un ravishda olib borilishi ham bolaning ma'naviy axloqiy kamolotida, ham estetik kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi.

*Estetik qiziqish* shaxsni san'at asarlarini, tevarak-atrofdagi borliqni estetik idrok etishga va estetik faoliyatga undaydi. Estetik qiziqish estetik ehtiyojni yuzaga keltiradi.

«Estetik tarbiya» tushunchasi bilan bir qatorda «badiiy tarbiya» tushunchasi ham mavjuddir. Badiiy tarbiya san'at asarlari orqali tarbiyalashdir. U shaxsda san'at asarlarining shakl va mazmunini estetik idrok etishni rivojlantirish, badiiy didni shakllantirish va san'atning. ma'lum turlari bo'yicha ijodiy faoliyatni, ijrochilik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgandir. Uning natijasi fikrning paydo bo'lishida, uni amaliy faoliyatda qo'llashda, o'z bilim va ta'surotlarini qo'ra bilishda, his-tuyg'ulari va fikrlarini samimiyat bilan ifodalashda namoyon bo'ladi.

**Estetika** tabiatdagi, jamiyatdagi moddiy va ma'naviy madaniyat buyumlarida aks etgan, shuningdek estetik ongning paydo bo'lishi, rivojlanishi va vazifasi to'g'risidagi qonuniyatlarni, ob'ektiv borliqni estetik bilishning muhim usullaridan biri bo'lgan san'atning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi.

Estetik hisda idrok etilavotgan voqelikka nisbatan xudbinlik ohangi, shaxsiy manfaat nuqtai nazaridan g'arazli qarashlar bo'lmaydi. Ajdodlarimiz bu to'g'rida shunday yozadi: «Kishidagi go'zallik hosil qilgan sezgi, odam eng yaqin kishisi bilan

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

uchrashganda paydo bo'ladigan porloq quvonchga o'xshaydi. Biz go'zallikni beqiyos sevamiz, undan eng yaqin kishimizni uchratganda quvongandek zavqlanib quvonamiz». Go'zallik insoniyatning butun tarixiy taraqqiyoti davomida yaratiladi vama'daniy-tarixiy tajribaning bir qismini tashkil etadi. Uning mavjudligi, ob'ektivligi yosh avlodga estetik tajribani tizimli ravishda singdirish va shu orqali ularning estetik tomondan taraqqiy etishini ta'miilaydigan *estetik tarbiya* nazariyasinnig faol usullarini ishlab chiqishga yo'naltiradi. Bunda tarbiya va ta'lim jamiyatning estetik madaniyatini o'zlashtirishning asosiy vositasi hisoblanadi.

*San'at* o'zining hissiy ta'sir kuchi bilan kishiining faqat hissini emas, fikr va irodasini ham maftun etadi, tarbiyalovchi roli ham mana shunda namoyon bo'ladi, shuning uchun u *estetik tarbiyaning mazmuni va vositasi* hisoblanadi.

Ko'pchilik pedagog va psixologlarning tadqiqot ishlari bolalarning ijodiy faoliyatlari, hissiyotlari, estetik tasavvurlarining o'ziga xos xususiyatini va ulardagi estetik tasavvur va hissiyotlarning qanday rivojlanishini ochib bergan. Bu tekshirishlar bolalardagi estetik tasavvur va hissiyotlarni rivojlantirishni ulardagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bilan birga qo'shib olib borish keraq degan xulosaga olibkeldi. Estetik tasavvurning o'ziga xosligi shundaki, idrokning boshqa turlariga qaraganda narsalarni his qilish shakli - «ko'rinadigan» va «eshitiladigan» narsalar butunlay boshqa mazmun kasb etadi. Oddiy idrok qilishda narsalarning ko'rinishi, ohangdorligi unchalik muhim bo'lmay, balki uning ahamiyati muhimdir.

SHuning uchun estetik tarbiya yuqori darajadagi sensor madaniyatni, kuzatuvchanlikning rivojlangan bo'lishini talab etadi. Kishi narsa va hodisalargago'zallik mezoniga asoslangan holda, alohida qadr- qimmat bilan yondoshgandagina estetik kechinmalar paydo bo'ladi.

Estetik hislar fikrlash bilan bevosita bog'liqdir. Estetik kechinmalarda har doim xayolishtirok etadi, busiz go'zallikni idrok etish ham, ijodiy faoliyatni rivojlantirish ham mumkin emas. Xayol faoliyat jarayonida shakllanadi. O'yin, rasm chizish, ertaklarni eshitish xayolning ishlashini talab etadi. Dastlabki vaqtlarda xayol faoliyat jarayonida narsalar bilan ta'sir etish natijasida yuzaga keladi. Keyingi bosqichlarda esa, ijodiy faollikning tashqi shakllaridan sekin-asta fikrlashga o'tadi. Bola rasm chizganda yoki o'ynaganda obrazni tasvirlashdan yoki ifodalashdan oldin shu obrazni idealida yaratadi.

Badiiy asarlarni idrok qilganda ham xuddi shunga o'xshash voqea yuz beradiki, bolalar asardagi qahramonlarga xayolan qo'shib, ularning xatti-harakatlarida o'z xayollari bilan qatnasha boshlaydilar. Demak,-Estetik kechinmalar murakkab hodisa bo'lib, hissiyotlar, xayol va fikrning faol ishlashini, o'z fikr va hissiyotlarini ifodalashga

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

faoliyatga ehtiyoj tug'ilishi kabi xususiyatlarni o'zichiga oladi.

Bu borliqdagi va san'atdagi go'zallikni to'liq idrok etadigan va to'g'ri tushunadigan shaxs qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan jarayon. U o'zida badiiy kechinmalar, qarashlar va e'tiqodlar tizimini aks ettiradi, haqiqiy estetik qadri yatlardan zavqlanishni ta'minlaydi.

Shu bilan birga bu orqali bolalarda turmushning hamma tomonlaridagi go'zallik unsurlarini ilg'ab olish, xunuklik, didsizlikka qarshi kurashga harakat qilishni tarbiyalaydi.

*Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning estetik rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar.*

SHaxsning estetik xususiyatlari tug'ma emas, ammo ular ijtimoiy muhit va faol pedagogik rahbarlik sharoitida ilk yoshdan boshlab rivojlanib boradi. Estetik rivojlanish jarayonida bolalarni estetik idrok, tasavvur, tushunchalar, mulohazalar, qiziqishlar, his-tuyg'ular, badiiy va ijodiy qobiliyatlarni tarkib toptirish amalga oshiriladi. Bolalarning estetik rivojlanishi ularning kundalik jo'shqin hayoti bilan chambarchas bog'liqdir. Ilk yoshdagi bolalarni nazarda tutganda, xali ularning estetiktarbiyasi to'g'risida emas, balki ularning hissiy va sensor rivojlanishi to'g'risida o'ylash kerak. Bola yaltiroq bo'yoqdan xursand bo'ladi, bir maromdagi tovush va harakatlardan huzur qiladi. Bola hayotining birinchi yilida ularning sensor-hissiy qabul qiluvchanligi takomillashib boradi.

Bu yoshdagi bolada hissiy kechinmalarning shakllanishida kattalar muhim rol o'ynaydi. Kattalarning ochiq yuz bilan jo'shqin ohangda gapirishlari bolaga buyumlarning u yoki bu xususiyatlariga ijobiy munosabatda bo'lishlariga yordam beradi. Va, aksincha, kattalarning ogohlantiruvchi ovozi, ular yuzidagi tundlik alomati yoki xo'mrayib qarashlari, jerkib, siltab tashlashlari va hokazolar bolalarda shu buyumga yoki uning sifatiga salbiy munosabatni shakllantiradi. Bola hayotining ikkinchi yilida uning idroki sekin-asta takomillasha boradi. Bolalar endi faqat borliqxususiyatlarini emas. shu bilan birga san'at asarlaridagi ayrim estetik ifoda vositalariniham idrok eta boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalarda musiqaning quvnoq va g'amgin kuylariga, ularning qattiq va sokin ohangiga, ohista va tezligiga javob ta'siri paydo bo'ladi va hokazo.

*O'rta guruhga* kelganda bolalar estetik idrokinng rivojlanishida muhim o'zgarishlar yuz beradi. Ularning estetik idroki ancha aniq va tabaqalashgan bo'lib qoladi. Ammo shunga qaramay, u qisqa-qisqa bo'lib, bolaning shaxsiy tajribasi va qiziqishiga bog'liq bo'ladi.

Bu yoshdagi *bolalar badiiy obrazni eng oddiy estetik baholay oladilar*, ba'zi bir

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

estetik vositalarni to'g'ri anglyadigan, tasvir mohiyatini tushunadigan bo'lib qoladilar. Bolalarda go'zallikni idrok qilish jarayoni aniq ifodalangan, ta'sirli, faol tusda bo'ladi. Bu ayniqsa ular *qo'g'irchoq teatri, kino, multfilm, telespektakllarni* tomosha qilganlarida aniq namoyon bo'ladi. Bolalar asar qahramonlari harakatiga bemalol qo'shilib harakat qiladilar, ularda muayyan vaziyatda o'zini qanday tutishni aytib turadilar, o'zlarini ular bilan birga o'ynayotgandek his etadilar. Bu yoshdagi bolalar tanish bo'lgan san'at asarlarini yangi asarlar bilan solishtiradilar va ba'zi bir xulosalar chiqaradilar. Bolalar she'rni nasrdan. badiiy asarning ba'zi bir janrlarini, tasviriy faoliyat va musiqaning bir xil turlarini (ertakni hikoyadan, marshni raqsdan, allani o'yindan va hokazo) bir-biridan ajrata boshlaydilar. Tasvirda badiiy, musiqa, teatrlashtirish kabi hamma faoliyatlarda quyilgan vazifani bajarishda mustaqillik, ijodkorlikka intilish namoyon bo'la boshlaydi. Bolalar o'yinga tushganda, ashula aytganda, sahnalashtirish o'ynlarida obrazlarning ifodali bo'lishiga ongli ravishda intila boshlaydilar.

*Katta guruhning* oxirlariga kelganda ular musiqani, badiiy asarlarni diqqat bilan tinglaydilar, tasviriy san'at asarlarini sinchiklab kuzatadilar, ulardagi ijobiy qahramonlarning xatti-harakatlaridan quvonadilar, yomonlikni qoralaydilar. Bolada musiqaviy va shoirona tinglash qobiliyati rivojlanadi. Ularda ayrim musiqa janrlariga, adabiy va tasviriy san'at asarlariga nisbatan barqaror qiziqish paydo bo'ladi. Bolalarda badiiy-ijodiy qobiliyat rivojlana boshlaydi, ular mustaqil ravishda topishmoqlar, ashulalar, ertaklar, she'rlar to'qiydilar, applikatsiya va rasmlar ishlaydilar. Endi ular o'zlarining va o'rtoqlarining ishlarini baholaydigan bo'lib qoladilar. Kuzatayotgan san'at asarlari, eshitayotgan musiqa asarlari, o'qilayotgan she'rlarning eng nozik tomonlarini ko'ra biladilar, seza boshlaydilar. Badiiy asarlardagi ba'zi she'riy obrazlarni eslab qoladilar va o'z nutqlarida ishlatadilar. Tevarak-atrofdagi go'zallikka, san'atga, badiiy va o'yin faoliyatining har xil turlariga nisbatan ularda qiziqish shakllana boshlaydi. Bolalar badiiy asar qahramonlari xatti-harakatiga juda katta his-hayajon bilan munosabat bildiradilar, ammo asardagi qahramonlar xulqidagi yashirin sabablarni ular hali anglab yeta olmaydilar, bolalarda badiiy ijodkorlikning rivojlanishi davom etadi, ammo ularning fikrlari hali aniq, barqaror emasligi bilan ajralib turadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyat jarayonida jamoa bo'lib ishlash malakalarini shakllantirish dolzarb ahamiyatga molik masalalardan biridir.

## *Tarbiyalanuvchilarni estetik tarbiyalash omillari va vositalari*

Estetik tarbiyaning vazifalari tarbiyaning umumiy maqsadlaridan kelib chiqib, bolalarning yosh imkoniyatlariga qarab belgilanadi. Estetik tarbiya vazifalarini xal etish

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

bolalarda tashabbuskorlik, ma'lum natijalarni oldindan bilish, ularga intilish, orzu qila bilish kabi sifatlarni shakllantirish bilan uzviy bog'langandir.

Yuqorida ko'rsatilgan vazifalar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning har bir yosh guruhlarida estetik tarbiya berishning mazmuni va metodlari ishlabchiqiladi.

Estetik tarbiyaning mazmuni bolaning estetik faoliyati orqali amalga oshiriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarni *estetik hissiyot, qiziqish, estetik ehtiyoj, estetik did va mulohazalarni* tarbiyalashni o'z ichiga oladi.

Bular quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

o'yin, mehnat jarayonida, maishiy faoliyatda ijtimoiy va tabiat voqealari

bilan tanishtirish orqali tevarak-atrofdagi borliqqa nisbatan estetik munosabatni tarbiyalash;

➤ san'at asarlari (badiiy tarbiya) vositasida estetik tarbiya berish.

Pedagogika fanida bolalarni chizishga, loy va plastilindan narsalar yasashga, ashula aytishga va shunga o'xshashlarga o'rgatish metodikasi mukammal ishlabchiqilgan. Bola ijodining mazmuniga ta'sir etadigan asosiy vosita.

Bolani hayajonlantiradigan, uning xayol va hislariga ta'sir etuvchi narsa tevarak-atrofdagi yorqin, jonli taassurotlardir. Badiiy faoliyatning hamma turlarida ham ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish estetik idrok va hislarni rivojlantirish bilan bog'liq holda olib boriladi. Agar bola qishki tabiatning go'zalligini his eta olsa, u albatta shu go'zallikni rasmda, hikoyasida aks ettiradi. Agar bola badiiy adabiyotlardagi obrazlarni idrok eta olsa, undagi qahramonlar bola tushunchasiga yaqin bo'lsa, bunday kitoblar bolalar o'yini uchun rasm chizish va loydan narsalar yasash uchun bitmas-tuganmas manba bo'lib xizmat qiladi.

Agar bolalar tilning go'zalligini, she'ning ritmini, ohangdorligini his eta olsalar, o'zlari ham kichkina she'rlar to'qib, qofiyalar tanlashga urinadilar. Bolalardagi fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun badiiy qobiliyatning hamma turlarida ham xayolning ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi ta'minlanadi.

Estetik tarbiyaning vazifalari tarbiyaning umumiy maqsadlaridan kelib chiqib, bolalarning yosh imkoniyatlariga qarab belgilanadi. Estetik tarbiya oldida quyidagi vazifalar turadi:

1. Bolalarni hayotdagi, voqelikdagi go'zallikni tushunishga, sevishga, tabiatda va turmushda, yaratuvchilik mehnatida, ijtimoiy hayotda, kishilar xattiharakatida bolalarga tushunarli bo'lgan go'zalliklarni ko'ra bilishga o'rgatish. Ularda estetik his, estetik did, estetik munosabatni tarbiyalash, kuchlari yetganicha hayotda go'zallik



# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

yaratishda faol ishtirok etish istagini tarbiyalash.

2. Bolalarni badiiy ijodning turli janrlarida (badiiy asar, musiqa, qo‘shiq, rasm va boshqalar) yaratilgan san’at asarlarini ko‘rish, tushunish va sevishga o‘rgatish orqali ularda estetik ong qirralarini shakllantirish; chiroylini xunuk-dan, g‘amginlikni xursandchilikdan farqlay olish; ranglarni, shakl, tovushlarni birbiridan ajrata olish kabi sensor etalonlar bilan tanishtirish.

3. Bolani san’atning turli sohalari: ashula, o‘yin, she‘r o‘qish, qayta hikoya qilish, ijodiy faoliyat (ijodiy o‘yin, hikoya qilib, rasm chizish, biror narsa yasash yoki qurish) ka-bilarda yanada faolroq harakat qilish va o‘zini ko‘rsata bilishga o‘rgatish. Bular orqali bolalarda badiiy ijodiy qobiliyatni, xayolni o‘stirish, fazoviy va rang munosabatlarini, mo‘ljalga olish, ko‘rish xotirasi, qo‘llarni chaqqon harakat qildirish malakasi, jo‘shqin kayfiyatni ko‘rsatuvchi hissiy sezgirlikni rivojlantirish va h.k.

3 Bolalarga estetik zavq uyg‘otish uchun ularga kuzatilayotgan narsaning mazmuni va ahamiyatini tushuntirish kerak. Bola-larning hislariga ta’sir etish uchun bu hali yetarli emas. Eng muhimi, bu yerda kattalarning namunasidir.

4 Tarbiyachining o‘zi zavqlansa, ortiqcha so‘zlarisiz go‘zallikka qiziqish uyg‘ota oladi va bolalarda estetik kechinmalar paydo qila oladi.

5 Bolalar tarbiyachidan «Nima uchun oltin kuz deyiladi?»- deb so‘rashadi, tarbiyachi istirohat bog‘iga borib ko‘ramiz, deb javob beradi. Bog‘ga borishganda bolalarga taklif etadi: «Sayr qilib daraxtlarni, yo‘lkalarni kuzatamiz». Bog‘ning eng xushmanzara joyiga kelganda bolalar to‘xtab, jim atrofga nazar tashlashadida, nima uchun oltin kuzligini tushundik. Chunki barglar tillaga o‘xshaydi. «Ana qizil barglar», deyi-shadi ular hayajon bilan. Shamol bo‘lishi bilan barglar yerga tushadi. yo‘lkalar esa gilamga o‘xshaydi.

6 Ko‘chaga sayrga chiqishadi. Tarbiyachi bolalarga shunday deydi: «Biz hozir sizlar bilan bog‘cha ko‘chasidan yurib o‘tamiz. Sizlar diqqat bilan kuzatib boringlar, kim qanday chiroyli narsa ko‘rsa, sayrdan keyin so‘zlab beradi».

7 Shuni ta’kidlash kerakki, ajoyibot yonimizdadir, bolalar-ni shu ajoyibotni ko‘ra bilishga, undan hayratlana olishga o‘rgatish lozim. Tabiatning go‘zalligini va ajoyibligini inson hayot go‘zalligiga, san’at go‘zalligi va ajoyibotiga aylantiradi. Jonajon tabiat estetik tarbiyaning qudratli vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Tevarak- atrofda tabiat go‘zalligi hatto eng kichik bolani ham quvontiradi. Uning tuyg‘ular va xayollarda saqlangan go‘zalligi bolalikda ayniqsa yorqin va chuqur idrok qilinadi, inson bularni butun hayoti davomida esidan chiqarmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

1. Sobirovna, S. Y. (2023). O 'YIN ORQALI BOLA TAFAKKURI VA NUTQINI OSTIRISH. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(3), 93-99.
2. Yulduz, S. (2023). KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA BOLALAR NUTQI VA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 23(2), 87-92.
3. Yulduz, S. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK TA'LIM BERISHNING O'ZIGA XOSLIGI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(3), 124-129.
4. Sobirovna, S. Y. (2022). PEDAGOGNING KREATIVLIGI BOLALAR IJODIY RIVOJLANISHINING ZARUR SHARTI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 219-220.
5. Sobirovna, S. Y. (2022). KICHIK MAKTAB YOSHDAGI O 'QUVCHILAR BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 158-160.
6. Sobirovna, Y. S. (2023). Methods and Tools of Economic Education in Preschool Children. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 109-115.
7. Sobirovna, S. Y. (2023). METODIST FAOLIYATI ASOSLARI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(5), 108-114.
8. Sobirovna, S. Y. (2023). Creativity in the work of an educator. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 361-367.
9. Sidiqova Yulduz. (2024). SYUJETLI-ROLLI O'YINLARNING BOLA FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(1), 44-51.
10. Sidiqova Yulduz Sobirovna. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMDA NUTQ, MULOQOT O'QISH VA YOZISH MALAKALARINING SOHALARI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(1), 52-62.
11. Ruziyeva, M. Y. (2020). About color symbols in folklore. *Journal of critical reviews. ISSN-2394-5125 VOL*, 7.
12. Ruziyeva, M. Y., & Aslonova, S. S. (2021). Theoretical and Practical Foundations of Teaching Folklore In Primary School. *Middle European Scientific Bulletin*, 10.
13. Ruziyeva, M. Y., & Lobar, S. (2023). Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

14. Yoqubovna, R. M. (2017). Expression of Attitude to Colors in Turkic National Ritual Songs. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 6(1), 54-68.
15. Yokubovna, R. M. (2020). About color symbols in folklore. *JCR*, 7(17), 461-466.
16. Ruziyeva, M. Y., & Lobar, S. (2023). Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature.
17. Bahrievna, P. N., & Ro'ziyeva, M. Y. (2023). Reforms and Innovations in the Educational System in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(6), 47-51.
18. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). COLOR SYMBOLISM IN UZBEK FOLKLORE. *Theoretical & Applied Science*, (5), 277-284.
19. Ruzieva, M. Y. (2022). SYMBOLISM OF MYTH, SYMBOL AND COLOR. *Ann. For. Res*, 65(1), 2719-2722.
20. Ruzieva, M. (2016). Colour and its psychoanalytical interpretation in folklore. *Язык и культура (Новосибирск)*, (23), 127-130.
21. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). Color symbolism in Uzbek folklore. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 05 (85), 277-284.
22. Uzbekistan, B. Qualitative properties and imagery of Colors.
23. Ro'ziyeva, M. Y. (2021). O'qish darslarida fasllar bilan bog'liq matnlar va ularning ahamiyati: DOI: 10.53885/edinres. 2021.86. 66.011 Ro 'ziyeva MY, Boshlang 'ich ta'lim nazariyasi kafedrası mudiri, fffd (PhD) Madinabonu Xayrulloeva, BuxDU, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4 kurs talabasi. In *Научно-практическая конференция* (pp. 23-24).
24. Ro'ziyeva, M. (2021). FOLKLORSHUNOSLIKDAGI YANGI BOSQICHLAR VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI: Mohichehra Ro'ziyeva, BuxDu Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası mudiri, PhD, dotsent. In *Научно-практическая конференция* (pp. 21-22).
25. Oktam's, S. M. (2023). "Methods and Tools of Speech Development of Small Group Children in Preschool Education Organization". *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 104–108.
26. O'ktam qizi Buxoro, S. M. (2022). BOLANING NUTQINI RIVOJLANTIRUVCHI O 'YINLAR. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 484-486.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

27. Isomova, F. A. T. Q. (2022). МАКТАВГАЧА ТАЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА БОЛАЛАРНИ МАКТАВ ТА'ЛИМИГА ТАЙЙORLASHДА NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(1), 947-949.

28. Isomova Farog'at Tojiddin qizi. (2023). THE CONTENT OF THE FORMATION OF SPEECH AND READING COMPETENCES OF PRESCHOOL CHILDREN. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(11).

29. Сайфуллаева, Н. Б. (2021). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ КЛАССНЫХ УРОКОВ. Вестник науки и образования, (15-3 (118)), 40-42.

30. Сайфуллаева, Н. Б. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКОГО ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ. In НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ (pp. 10-12).

31. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ КОМПЬЮТЕРНЫМ НАУКАМ. Universum: технические науки, (4-1 (109)), 41-43.

32. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ МАТЕМАТИКИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК ДЛЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ: Сайфуллаева Нозима Баходировна, преподаватель кафедры “Теория начального образования”, Бухарский государственный университет. Город Бухара. Республика Узбекистан. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1), 305-307.

33. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). Методы Организации Уроков Математики В Начальных Классах С Использованием Цифровых Технологий. Miasto Przyszłości, 35, 388-390.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

34. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). РОЛЬ МАТЕМАТИКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ. *PEDAGOGS journali*, 1(1), 292-292.
35. Сайфуллаева, Н. Б. (2019). Роль дидактических игр в умственном развитии учащихся в математике начального класса. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILISOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY* (pp. 102-106).
36. Сайфуллаева, Н. Б., & Марданова, Ф. Я. (2021). НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ ПО ВЫСШЕЙ МАТЕМАТИКЕ. *Проблемы науки*, 84.
37. Сайфуллаева, Н. Б. (2020). Важные особенности дидактических игр в процессе обучения математике в начальных школах. In *ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ* (pp. 60-62).
38. Сайфуллаева, Н. Б., & Мурадова, Я. М. (2020). Пути эффективного использования методов обучения математике в начальных классах. In *EUROPEAN RESEARCH* (pp. 121-123).
39. Сайфуллаева, Н. Б. (2022). Методы определения потребностей обучающихся в процессе использования облачных технологий в образовании. *Universum: технические науки*, (2-1 (95)), 57-59.
40. Сайфуллаева, Н. Б., & Саидова, Г. Э. (2019). Повышение эффективности занятий, используя интерактивные методы в начальном образовании. *Научный журнал*, (6 (40)), 101-102.
41. Bahodirovna, S. N. (2023). KINDERGARTEN, SCHOOL AND FAMILY PARTNERSHIP IN TEACHING CHILDREN IN MATHEMATICS. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 383-388.
42. Bahodirovna, S. N. (2023). FORMING CHILDREN'S IDEAS ABOUT THE SIZE OF OBJECTS AND THEIR MEASUREMENT. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 1(3), 102-107.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

43. Bahodirovna, S. N. (2023). Organization Forms of the Development of Primary Mathematical Concepts in Children. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 138-143.

44. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПО МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Проблемы педагогики*, (2 (63)), 15-17.

45. Hojiyeva, N. B. (2023). INCREASING THE INTEREST OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TEACHING TECHNOLOGY IN PRIMARY GRADES. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 430-433.

46. Bahodirovna, H. N. (2023). Methodological Principles of Teaching The Science of" Education" In Primary Classes. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 366-368.

47. Tursunova, Z. N. (2023). START MODERN PRINCIPLES OF ORGANIZING OUTSIDE THE CLASSROOM IN CLASSROOMS. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 494-499.

48. Tursunova, Z. N. (2023). ORGANIZING OUTSIDE THE CLASSROOM IN MOTHER TONGUE SUBJECT. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 468-472.

49. Narziyeva Shahnoza Rustamovna. (2023). DEVELOPING EMPATHY IN STUDENTS. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research* , 1(3), 127-131. <https://inno-world.uz/index.php/ojamr/article/view/76>

50. Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi. (2023). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE MANIFESTATION OF ADOLESCENT EMPATHY. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 132-134.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

51. Salomat, G. L. The essence of the content of the concept of digital educational resources and its role in primary education. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. 2020, Volume: 10, Issue: 5.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

**О'qituvchi pedagogik muloqot usullarini rivojlantirish texnologiyalariga oid qarashlar**

*Osiyo Xalqaro Universiteti*

*Pedagogika va psixologiya kafedrasini o'qituvchisi*

*Xalilova Shaxlo Ravshanovna*

**Annotatsiya:** Maqolada o'qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik muloqot usullarining o'zlashtirish jarayoniga ta'siri tahlil etilgan. Bundan tashqari pedagogik muloqot usulini to'g'ri qo'llash orqali, maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining odob-ahloqi, ma'lumotlarni o'zlashtirish bilan bog'liq jihatlari maqolada aks etgan. O'qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik muloqot usullarining o'zlashtirish jarayoniga ta'siri atroflicha tahlil etilgan.

**Аннотация:** В статье анализируется влияние методов педагогического общения на процесс усвоения в профессиональной деятельности учителя. Кроме того, в статье отражены правильное использование метода педагогического общения, манеры поведения дошкольников, аспекты, связанные с усвоением информации. Подробно проанализировано влияние методов педагогического общения на процесс усвоения в профессиональной деятельности учителя.

**Abstract:** The article analyzes the impact of pedagogical communication methods on the mastering process in the teacher's professional activity. In addition, by using the method of pedagogical communication correctly, the manners of preschoolers, the aspects related to the assimilation of information are reflected in the article. The impact of pedagogical communication methods on the mastering process in the teacher's professional activity has been thoroughly analyzed.

**Калит сўзлар:** Muloqot, pedagogik muloqot, ta'lim tizimi, muloqot usullari, fikrlash tarzi, nutq madaniyati, o'zlashtirish jarayoni va muomala odobi, kasbiy faoliyat.

**Ключевые слова:** Общение, педагогическое общение, образовательная система, методы общения, образ мышления, культура речи, учебный процесс и этикет, профессиональная деятельность.

**Key words:** Communication, pedagogical communication, educational system, communication methods, way of thinking, speech culture, learning process and etiquette, professional activity.

Yurtimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jamiyatda siyosiy faollik ortib borishini ta'minlamoqda. O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda pedagogik salohiyat va imkoniyatimizni xolis baholash bilan birga, xato va kamchiliklarni ham tanqidiy o'rganilmoqda.



# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

Pedagoglarning mahorati va nazokatini rivojlantirish yo'lida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu yo'lda bo'lajak pedagoglarning muloqot usullarini rivojlantirishning mazmun mohiyatini to'liq shakllantirib, tarixiy ildizlarini asoslab, dunyoqarashni rivojlantirishni eng muhim vazifa sifatida belgilab olmog'imiz lozim. Bu yo'lda albatta tinmay izlanib, tadqiqotlar olib borib, azaliy qadriyatlarimizni mujassamlashtirgan zamonaviy ta'lim texnologiyalari va metodlarini shakllantirmog'imiz darkor. Buyuk ajdodimiz Imom Moturidiy hazratlarining "Tiriklik hikmatini sog'liqda, deb bilgin", degan chuqur ma'noli so'zlari naqadar to'g'ri ekanini yana bir bor o'z taqdig'ini topdi.

Respublikamizda rivojlanayotgan uzluksiz ta'lim tizimida ijtimoiy – iqtisodiy talablarga mos ta'limning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu xususiyatlar barcha kasblar singari o'qituvchilik kasbining maydonga kelishi va rivojlanishi bilan bog'liq. Dissertastiyamiz ob'ektini tashkil etgan oliy ta'limda bo'lajak o'qituvchi pedagogik muloqot usulini rivojlantirish texnologiyalari muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada o'tmish allomalaridan Abu Nasr Farbiy, Kaykovus, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalar o'z ta'limotlarida qimmatli fikrlarini bildirib pedagogik muloqotning – tarixiy tarraqiyoti va ma'naviy – ruhiy, avvalambor, shu jamiyatda muloqot olib boruvchi pedagoglarning ma'naviy qiyofasi, pozistiyasi va madaniyatiga bog'liq ekanligini alohida ta'kidlaganlar.

Tadqiqot doirasida adabiyotlar tahlili metodika va pedagogika nazariya sohasida amalga oshirilgan bizgacha bo'lgan tadqiqotlarni vorisiylik printsipli asosida tahlil etishga harakat qildik.

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik muloqot usullarini rivojlantirish, ularda kasbiy-shaxsiy sifatlarni shakllantirish, kelajakdagi pedagogik faoliyatga tayyorlash va o'qituvchilarda innovastion tayyorgarlikni shakllantirish, ulardagi kasbiy ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish muammolari ko'plab ilmiy izlanishlarda o'z ifodasini topgan.

Muloqot jarayoni har qanday jamiyat hayotida zarur.muloqot jarayonisiz shaxs bo'lib kamol toppish imkonsiz. Biz fikrimizni so'zlar orqali ongli tarzda muloqot jarayoni orqali yetkazib beramiz. Muloqotsiz odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotadi. Pedagogic muloqot bu ta'lim va tarbiyaning, bilim egallash yo'lining o'tda yonmaydigan, suvda cho'kmaydigan o'lmas e'tiqodidir.

Pedagogik muloqot muayyan ta'lim-tarbiya jarayoni, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash kabi ta'limotlar asosida yaratiladi, ma'lum ilmiy qarashlar, ahloqiy

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

tamoyillarga tayanadi. Pedagogik muloqot o'z mohiyati va ta'sir kuchiga ko'ra, ta'lim tarbiya jarayonida ilm ahlini birlashtirishi yoki uni bir-biriga qarama-qarshi taraflarga bo'lib yuborishi, ta'limning jahondagi obro'yi va mavqeini oshirishi yoki tushirishi, yoshlar tarbiyasini yuksaklikka ko'tarishi yoki tanazzulga duchor etishiga xizmat qiladi.

Har bir pedagog o'zining mahoratini ishga solishda, turli xil salbiy muloqot usullariga qarshi turishida immunitetning ahamiyati katta.

Pedagogik muloqot O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan barcha pedagoglarning mahoratidan, tilidan, e'tiqodidan jinsidan qat'iy nazar barcha O'zbekiston yoshlarining manfaatlarini ifodalaydi. Pedagogik muloqot ta'lim tarbiya jarayonini yuksaltirishga xizmat qiladigan yetuk avlodni tarbiyalab berishdagi o'rni ham benihoya kattadir. Shuning uchun ham pedagogic mahoratning asosiy vazifalaridan biri barkamol avlodni, komil insonni tarbiyalash va zamonaviy bilimlardan xabardor qilishdir. Pedagogic muloqot har bir o'qituvchining dars o'tish mahoratini erkin namoyon etishga, ma'naviy kamolotga erishish yo'lida shart-sharoit bo'lib xizmat qiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogic muloqot usullarini rivojlantirish pedagogik faoliyatda kechadigan salbiy holatlar, noo'rin hatti-xarakatlar natijasida ma'naviyatni izdan chiqarishga qaratilgan har qanday salbiy ta'sirlarga qarshi kurasha oladigan pedagogik muloqot usuli to'g'ri tanlangan kuchli o'qituvchilarni shakllantirish bugunning dolzarb mavzusi sifatida qaralib, shu yo'lda har bir talaba-yoshlar o'qib o'rganishi, izlanishi, doimo kreaktiv fikrlay oladigan, yurt ravnaqida o'z hissasini qo'shmog'i kerakligi ayon bo'ldi.

O'qituvchilarning pedagogik muloqoti yetukligining asosiy mezoni o'zi mansub bo'lgan millat va xalq tomonidan erishilgan yutuqlarni o'zlashtira olish, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan xabardor bo'lish, tengdoshlari yutug'idan o'rnak olib, ulardan faxrlanish, shuningdek, millat taraqqiyoti va Vatan ravnaqi yo'lida mehnat qilish, kurashishda namoyon bo'ladi.

Ma'lumki bo'lajak o'qituvchi pedagogik muloqot usulini rivojlantirish texnologiyalari ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Bunda, mamlakatimizda qo'llanilayotgan ayrim an'anaviy ta'lim modellaridan foydalanish maqsadga muvofiq emas deb bilib, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quv – tarbiya ishlarini olib borish muhim didaktik ahamiyat kasb etishini inobatga olgan holda o'quv-tarbiya, ma'naviy-marifiy ishlarni olib borish va amalga oshirishda innovastion texnologiyalarning beqiyosligini ko'zda tutib, V.P.Bespalko, I.Ya.Lerner, B.T.Lixachev, M.V.Klarin, E.S.Polat, N.Saidaxmedov, O'.Tolipov, M.Ochilov, N.Azizxo'jaeva, B.Farberman, K.Zaripov, J.Yo'ldoshev, O.Roziqov, B.Xo'jaev, Sh.Olimov, K.Usmonov,

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

Q.Olimov, S.Og'aevlarning risolalari, o'quv ishlanmalarida bayon etilgan fikrlarni inobatga oldik.

## **Viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalar**

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

Viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalariga va O‘zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasiga tegishli prokurorlar boshchilik qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasiga lavozimiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o‘rinbosari bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori boshchilik qiladi. Mazkur prokurorlar O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo‘ysunadi va uning oldida hisobdordir.

Viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari, O‘zbekiston Respublikasi Transport prokurori O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori, O‘zbekiston Respublikasi Transport prokurori, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari tegishincha tumanlar, shaharlar prokuraturalarining va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarning faoliyatiga rahbarlik qiladi, qonunlarga, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlariga asosan va ularni ijro etish maqsadida o‘ziga bo‘ysunuvchi xodimlar uchun majburiy bo‘lgan buyruqlar, ko‘rsatmalar, farmoyishlar chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining, O‘zbekiston Respublikasi Transport prokurorining, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlarining O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadigan hamda lavozimidan ozod etiladigan birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari bo‘ladi.

Viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalarida va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda boshqarmalar hamda bo‘limlar tashkil etiladi.

Boshqarmalar va bo‘limlarning boshliqlari, prokurorlarning katta yordamchilari O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

Boshqarmalar va bo'limlar boshliqlarining o'rinbosarlari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining roziligi bilan O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori, O'zbekiston Respublikasi Transport prokurori, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlari tomonidan lavozimga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining, O'zbekiston Respublikasi Transport prokurorining, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlarining yordamchilari, boshqarmalar va bo'limlarning katta prokurorlari hamda prokurorlari, alohida muhim ishlar bo'yicha katta tergovchilar va alohida muhim ishlar bo'yicha tergovchilar, katta tergovchilar hamda tergovchilar tegishincha O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori, O'zbekiston Respublikasi Transport prokurori, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlari tomonidan lavozimga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

## **Tumanlar, shaharlar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalar**

Tumanlar, shaharlar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarga tegishli prokurorlar rahbarlik qiladi, ular O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimidan ozod etiladilar. Bu prokurorlar yuqori turuvchi tegishli prokurorga hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysunadilar va ularning oldida hisobdordirlar.

Tumanlar, shaharlar prokurorlarining va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishilgan holda tegishincha O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori, O'zbekiston Respublikasi Transport prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlari tomonidan lavozimga tayinlanadigan hamda lavozimidan ozod etiladigan o'rinbosarlari bo'lishi mumkin.

Tumanlar, shaharlar prokurorlarining va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning katta yordamchilari, yordamchilari, prokuratura katta tergovchilari va tergovchilari, ish o'rganuvchilari tegishincha O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori, O'zbekiston



# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

Respublikasi Transport prokurori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlari tomonidan lavozimga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

## **O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo‘linmalari**

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti (bundan buyon matnda Departament deb yuritiladi) tuziladi. Departamentga maqomi, mehnatga haq to‘lash shartlari, tibbiy va transport xizmatlari ko‘rsatilishi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o‘rinbosariga tenglashtirilgan, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan Departament boshlig‘i rahbarlik qiladi.

Departament boshlig‘ining o‘rinbosarlari Departament boshlig‘ining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Departamentning markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari va hududiy boshqarmalari boshliqlari Departament boshlig‘ining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Departamentni va uning joylardagi bo‘linmalarini tashkil etish hamda ularning faoliyati tartibi qonunchilikda belgilanadi.

## **O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi hamda uning hududiy bo‘linmalari**

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Majburiy ijro byurosi (bundan buyon matnda Byuro deb yuritiladi) tashkil etiladi. Byuroni maqomi, mehnatga haq to‘lash, tibbiy va transport ta‘minoti shart-sharoitlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o‘rinbosariga tenglashtirilgan, O‘zbekiston

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

Respublikasi Bosh prokurorining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan hamda lavozimidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ozod etiladigan direktor boshqaradi.

Byuro direktori lavozimiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Bosh davlat ijrochisi hisoblanadi.

Byuro direktorining o‘rinbosarlari Byuro direktorining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

Byuro hududiy boshqarmalarining boshliqlari Byuro direktorining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

Byuroning tuman (shahar) bo‘limlari boshliqlari Byuro direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

Byuro va uning hududiy bo‘linmalarining tashkil etilishi va faoliyati tartibi qonunchilikda belgilanadi.

## **Prokuratura organlarining hay’atlari**

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori (rais), uning birinchi o‘rinbosari, o‘rinbosarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori, prokuratura organlarining boshqa xodimlaridan iborat tarkibda hay’at tuziladi. Hay’atning tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokuraturasida, viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalarida va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda prokuror (rais), uning birinchi o‘rinbosari, o‘rinbosarlari va prokuratura organlarining boshqa xodimlaridan iborat tarkibda hay’at tuziladi. Hay’atning tarkibi tegishli prokurorning taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokuraturasida, viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalarida va ularga tenglashtirilgan

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

prokuraturalarda tuziladigan hay'atlar maslahat organlari bo'lib, ular qonuniylik va jinoyatchilikning holatiga, prokuratura organlarining faoliyatiga, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori buyruqlari va ko'rsatmalarining ijrosiga, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yishga doir va boshqa masalalarni ko'rib chiqadi, prokurorlarning, prokuratura organlari tuzilmaviy bo'linmalari rahbarlarining va boshqa xodimlarining hisobotlarini eshitadi.

Hay'at qarorlari asosida tegishli prokurorlar buyruqlar chiqarishi mumkin.<sup>13</sup>

Prokuratura organlari xodimlarini lavozimga tayinlashda qo'yiladigan talablar O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunining 43-moddasida belgilab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra prokuratura organlaridagi lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarga nisbatan qo'yiladigan talablar quyidagicha:

- *oliy yuridik ma'lumotga ega;*
- *zarur kasbiy fazilatlari bo'lgan;*
- *zimmalariga yuklanadigan xizmat vazifalarini bajarishga sog'lig'i imkon*

*beradigan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tayinlanadi.*

Alohida hollarda, prokuratura organlaridagi xizmatga iqtisodiyot, moliya, sotsiologiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida va boshqa sohalarda oliy ma'lumotga, zarur bilim va tajribaga ega bo'lgan mutaxassislar qabul qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori, O'zbekiston Respublikasi Transport prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlari, shuningdek tumanlar, shaharlar prokurorlari hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlar lavozimiga yigirma besh yoshdan kichik bo'lmagan shaxslar tayinlanadi.

Prokuratura organlari xodimlari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori belgilaydigan tartibda attestatsiyadan o'tkazilishi lozim.

---

<sup>13</sup> <https://lex.uz/docs/106197>

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

Prokuratura organlari xodimlariga ilmiy, pedagogik va ijodiy faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanish taqiqlanadi.

Prokurorlar va tergovchilarning qasamyodi

Prokuror yoki tergovchi lavozimiga birinchi marta tayinlanayotgan shaxs quyidagi mazmunda qasamyod qabul qiladi:

*«O'z xizmat vazifalarimni halol va vijdonan bajarishga, qonun buzilishiga qarshi murossasiz kurashishga, fuqaro, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga tantanali qasamyod qilaman».*

Qasamyod qabul qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan belgilanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://president.uz/oz/lists/view/6961>;
2. O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni.  
Toshkent sh, 2001-yil 29-avgust, 257-II-son.  
<https://lex.uz/docs/106197>

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH  
AKADEMIYASI

**Xushboqova Nigora G‘ayrat qizi**

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti Yurisprudensiya ta‘lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

[Nigora.0303@icloud.com](mailto:Nigora.0303@icloud.com)

**Annotatsiya:** ushbu maqolada prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirish, prokuratura organlari xodimlari malakasini oshirish, O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi, Akademiyaning tuzilmasi, maqsad va vazifalari, Akademiya rahbariyati, tarmoqlari haqida batafsil yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** prokuratura, akademiya, bakalavriyat, magistratura, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish, kafedra, bo‘lim, fakultet, boshqarma va boshq.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan oq prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirish bilan bir qatorda prokuratura organlari xodimlari malakasini oshirish masalasiga alohida e‘tibor qaratildi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangi ustuvor yo‘nalishlari hamda qonun ustuvorligini ta‘minlash va qonuniylikni mustahkamlash vazifalari prokuratura organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish zaruriyatini davrning o‘zi taqozo etdi.

O‘tgan davr mobaynida huquqni qo‘llash holatini kompleks tahlil qilish, qonunbuzilishlar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini o‘z vaqtida bartaraf etish choralari ko‘rish, fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasini ta‘minlash, tadbirkorlik sub’ektlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash yuzasidan prokuratura organlari xodimlarini zarur bilim va ko‘nikmalarga o‘rgatish borasida muayyan ta‘lim va ilmiy salohiyat shakllantirildi.

Shu bilan birga, prokuratura organlari faoliyatining mutlaqo yangi yo‘nalishlari belgilanganligi, ularning amalga oshirilayotgan islohot va o‘zgarishlardagi o‘rni kuchaytirilganligi yuklatilgan vazifalarni samarali bajara oladigan munosib kadrlar tarkibini shakllantirishni talab etdi.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi<sup>14</sup>da belgilangan vazifalarga muvofiq, shuningdek, prokuratura organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning zamonaviy tizimini yaratish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Prokuratura organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”<sup>15</sup>gi 2018 yil 8 maydagi PF–5438-son Farmoni qabul qilindi. Farmonga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o‘quv kurslari O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi etib qayta tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 noyabrdagi “Jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida”<sup>16</sup>gi PF–257-sonli Farmoniga asosan, Bosh prokuratura Akademiyasi negizida O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasasi sifatida:

- *jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni;*
- *“bakalavr”, “magistr” darajasi bergan va davlat namunasidagi diplom topshirgan holda byudjet va to‘lov-kontrakt asosida kadrlarni tayyorlashni;*
- *prokuratura organlarida lavozimlarni egallash uchun nomzodlarni birlamchi ixtisoslashuv shaklida kasbiy qayta tayyorlashni;*
- *prokuratura organlarida rahbarlik lavozimlariga zaxirada turgan kadrlarni kasbiy qayta tayyorlashni;*
- *qisqa muddatli dasturlar asosida huquqbuzarliklar profilaktikasi, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘zaro hamkorlik masalalari yuzasidan davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining malakasini oshirishni;*
- *qonunchilikka muvofiq oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashni;*
- *milliy, xorijiy va xalqaro grantlarni jalb qilgan holda o‘quv, uslubiy, ilmiy-tadqiqot, axborot-tahliliy faoliyatning barcha turlarini;*

<sup>14</sup> <https://lex.uz/acts/-3107036>

<sup>15</sup> <https://lex.uz/docs/-3727063>

<sup>16</sup> <https://lex.uz/docs/6299077>

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

– *professor-o‘qituvchilar, xodimlar va tinglovchilarni davlat hokimiyati, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek, oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqot muassasalariga, shu jumladan, xorijiy davlatlarga stajirovkaga yuborishni;*  
– *noshirlik faoliyatini amalga oshiradi.*

Akademiya kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlari belgilangan tartibda byudjet va to‘lov-kontrakti asosida amalga oshiriladi.

Akademiya jinoyatlarni tergov qilish sohasida kadrlarni amaliyot bilan uzviy bog‘liqligini ta‘minlagan holda yagona yondashuv asosida tayyorlashga qaratilgan uzluksiz o‘quv tizimini yo‘lga qo‘yildi.

## Maqsad va vazifalar

Akademiyaning asosiy maqsadi Yangi O‘zbekiston sharoitida jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash amaliyotini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, ushbu yo‘nalishga ilg‘or xalqaro standartlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, shuningdek prokuratura organlari xodimlari va boshqa kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning samarali tizimini tashkil etish hamda fundamental va ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borishdan iborat.

## Faoliyatning asosiy vazifalari va yo‘nalishlari:

– prokuratura organlari xodimlarining bilim va ko‘nikmalarini, shu jumladan, tizimli tahlil va tanqidiy fikrlashni, shaxsiy va ishchanlik sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirishni, qonunlarga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga so‘zsiz rioya etilishi yuzasidan adolat va mas‘uliyat kabi yuksak tuyg‘ularini shakllantirish hamda mustahkamlashni ta‘minlovchi xodimlarni **tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning** yagona tizimini tashkil etish;

– zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, masofaviy ta‘limni, o‘qitish va treninglarning **interfaol hamda muammoli-vaziyatli** uslublarini keng joriy etish;

– prokuratura organlari faoliyatini ilmiy-metodik jihatdan ta‘minlash, fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar o‘tkazish, qonun ustuvorligini ta‘minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolar hamda tadbirkorlik sub’ektlarining huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish, huquqbuzarliklar profilaktikasining dolzarb muammolari yuzasidan tizimli asosda **ilmiy-**

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

**tadqiqot dasturlari va loyihalarini**, shu jumladan, milliy, xorijiy va xalqaro grantlarni jalb qilgan holda amalga oshirish;

– qonunchilikni takomillashtirish va yagona **huquqni qo‘llash amaliyotini** shakllantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish;

– o‘qitishning amaliy xususiyatlari va prokuratura organlarining kasbiy faoliyati bilan uzviy bog‘liqlikka tayangan holda **bakalavriat va magistratura** mutaxassisliklari bo‘yicha kadrlar tayyorlash;

– huquqbuzarliklar profilaktikasi, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘zaro hamkorlik masalalari yuzasidan davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining **malakasini oshirish**;

– prokuratura organlari faoliyatini **psixologik jihatdan ta‘minlash**, nomzodlarni xizmatga qabul qilishda kasbiy-psixologik tanlov o‘tkazish, prokuratura organlaridagi ma‘naviy-psixologik muhitni o‘rganish va uni yaxshilash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

– hamkorlikda **ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish, normativ-huquqiy, metodik va tahliliy** xususiyatga ega bo‘lgan ma‘lumotlarni almashish, o‘quv jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish, pedagoglar, ilmiy xodimlar va tinglovchilarning stajirovkalarini tizimli ravishda tashkil etish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish;

– o‘quv jarayonining sifatini oshirish bo‘yicha tajriba almashish, sa‘y-harakatlarni birlashtirish maqsadida, yuridik kadrlarni **tayyorlovchi, qayta tayyorlovchi va ularning malakasini oshiruvchi** ta‘lim va ilmiy-tadqiqot, shu jumladan, xorijiy davlatlar muassasalari bilan samarali idoralararo hamkorlikni chuqurlashtirish;

– o‘quv jarayoni va **ilmiy-metodik ishlarga yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qilish**, kontrakt asosida konsultatsiyalar o‘tkazish, shuningdek, boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasida chet el ta‘lim, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik o‘rnatish va shartnomalar tuzish;

– ta‘lim oluvchilarda inson huquq va erkinliklariga so‘zsiz rioya qilish madaniyati bilan uyg‘unlashgan yuksak **ma‘naviy, psixologik, tahliliy va kasbiy** sifatlarni rivojlantirishning samarali tizimini joriy etgan holda jinoyatlarni tergov qilish sohasida mutaxassislarni chuqurlashtirilgan maqsadli bazaviy tayyorlash;

– jinoyatlarni tergov qilish metodikasi va taktikasini samarali belgilash asosida jinoyat ishlari bo‘yicha mustaqil ish yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan **interfaol o‘qitish** metodlarini ta‘lim jarayoniga tatbiq etish;



# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

– yuqori malakali **ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash**, huquqni muhofaza qilish faoliyatining eng dolzarb masalalari bo‘yicha kompleks ilmiy tadqiqotlarni tizimli asosda amalga oshirish;

– jinoyatlar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini, shu jumladan, tergovga qadar tekshiruv hujjatlari va jinoyat ishlarini o‘rganish asosida ularning alohida turlari kesimida tahlil va diagnostika qilish, shuningdek, **huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish** faoliyatini uslubiy va konsultativ ta‘minlash;

– **sud-huquq sohasida qo‘shma ilmiy tadqiqotlar olib borish**, ilg‘or pedagogik tajriba almashish borasida uzluksiz xalqaro hamkorlikni amalga oshirish, o‘quv jarayoniga xorijiy mamlakatlar yetakchi oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining malakali mutaxassislarini jalb qilish.

## **Huquqni muhofaza qilish Akademiyasining rahbariyati:**

✓ **Samadov Salom Ismatovich**

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi boshlig‘i v.v.b.

✓ **Kolenko Yevgeniy Vyacheslavovich**

Akademiya boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari

✓ **Turaxanov Durbek Lermonovich**

Akademiya boshlig‘ining o‘rinbosari

✓ **Nigmadjanov Uygun Uchkunovich**

Akademiya boshlig‘ining o‘rinbosari

✓ **Mamasiddiqov Muzaffarjon Musajonovich**

Akademiya boshlig‘ining o‘rinbosari

## **Kafedralar**

- [Jinoyat huquqi va kriminologiya kafedrası](#)
- [Dastlabki tergov va surishtiruv kafedrası](#)
- [Kriminalistika va sud ekspertizalari kafedrası](#)
- [Prokurorlik faoliyati va prokuror nazorati kafedrası](#)
- [Tezkor-qidiruv faoliyati va kiberhuquq kafedrası](#)
- [Sudlarda prokuror vakolatini ta‘minlash hamda ijro ishi yurituvi kafedrası](#)
- [Davlat-huquqiy fanlar kafedrası](#)
- [Kasbiy psixologiya va boshqaruv faoliyati kafedrası](#)
- [Xalqaro huquq va inson huquqlarini himoya qilish kafedrası](#)
- [Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası](#)
- [Til o‘rgatish kafedrası](#)
- [Harbiy va jismoniy tayyorgarlik kafedrası](#)

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

• [Iqtisodiy jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash kafedrası](#)

## Markazlar

• [Huquqni muhofaza qilish faoliyati muammolarini ilmiy-amaliy tadqiq etish markazi](#)

• [Ilmiy innovatsion tadqiqotlarni muvofiqlashtirish va ilmiy xodimlarni tayyorlash markazi](#)

• [Korrupsiyaga qarshi kurashish ilmiy-ta'lim markazi](#)

• [Ofis-registrator markazi](#)

• [Raqamli kriminalistika ilmiy-uslubiy markazi](#)

## Bo'limlar

• Tashkiliy-nazorat va faoliyat samaradorligini baholash bo'limi

• Shaxsiy xavfsizlik bo'limi

• [Jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi](#)

• [Yuridik bo'lim](#)

• Birinchi va ikkinchi bo'lim

• Buxgalteriya va reja-moliya bo'limi

• Ishlar boshqaruvi bo'limi

• [Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligini ta'minlash bo'limi](#)

• [Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi](#)

• Loyiha boshqaruvi bo'limi

• [Xalqaro hamkorlik bo'limi](#)

• Tahririy-nashriyot bo'limi

• [Elektron ta'lim bo'limi](#)

• Kadrlar bo'limi

## Fakultetlar

• [Bakalavriyat fakulteti](#)

• [Magistratura fakulteti](#)

• [Qayta tayyorlash va malaka oshirish fakulteti](#)

## Boshqarma

• [O'quv-uslubiy boshqarma](#)<sup>17</sup>

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

<sup>17</sup> <https://proacademy.uz/uz-lat/menu/obschie>

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

Toshkent sh, 2017-yil 7-fevral, PF-4947-son.

<https://lex.uz/acts/-3107036>;

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prokuratura organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

Toshkent sh, 2018-yil 8-may, PF-5438-son.

<https://lex.uz/docs/-3727063>;

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi Farmoni.

Toshkent sh, 2022-yil 28-noyabr, PF-257-son.

<https://lex.uz/docs/6299077>;

4. <https://proacademy.uz/uz-lat/menu/obschie>

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

УДК: 636.6.034.042

## ТОВУҚЛАРНИНГ ЁШИ ДИНАМИКАСИДА ТУХУМ ВАЗНИНИНГ ЎЗГАРИШИ

**Бауыржан Алимбаев**

*Қорақалпоғистон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти  
“Зооинженерия ва ветеринария” кафедраси ассистенти, қ.х.ф.ф.д (PhD)*

**Бахыт Қазақбаев**

*Қорақалпоғистон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти  
“Зооинженерия ва ветеринария” кафедраси ката ўқитувчи*

**Альбина Қаниязова**

*Қорақалпоғистон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти  
“Зооинженерия ва ветеринария” кафедраси ассистенти*

**Аннотация.** Ушбу мақолада истиқболли товуқ кроссларига мансуб товуқларнинг тухум вазнининг ёши динамикасида ўзгариши келтирилган ва хулосалар қилинган.

**Калит сўзлар.** Тухум, кросс, динамика, вазн, гўшт маҳсулот, истеъмол.

**КИРИШ.** Ички бозорларимиз расталарида товуқ гўшти ва тухум маҳсулотларини халқимиз истеъмоли учун ишлаб чиқариш тизими янада ривожланиб келинмоқда. Паррандачилик чорвачилик соҳасининг устувор тармоқларидан бири бўлиб, парранда тухуми ва гўштига бўлган талаб юқори даражада эканлиги, маҳсулот кам ҳаражат сарфланиши алоҳида айтиб ўтишга моликдир. Сўнгги йилларда юртимизда паррандачиликка асосан гўшт ва тухумга бўлган эътибор кучайди.

Паррандачилик тез етилувчан ва кам таннархли соҳа бўлиб, аҳолини парҳез гўшти ва тухум маҳсулотлари билан таъминлашда аҳамиятли ҳисобланади. Шу боис, тухум ва гўшт маҳсулотларини етиштиришда паррандаларнинг ҳозирги кунда энг замонавий юқори маҳсулдор кроссларидан фойдаланиш орқали кўзланган натижаларга эришиш мумкинлиги исботланмоқда.

**Тадқиқотнинг мақсади.** Паррандачилик фермер хўжалиги шароитида истиқболли товуқ кроссларига мансуб паррандалардан фойдаланишнинг инновацион технологиялари ишлаб чиқилди.

**Тадқиқотнинг вазифалари.** Истиқболли товуқ кроссларидан олинган тухумларнинг ёши динамикасида тухум вазнини ўрганиш.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

**Тадқиқот объекти** Қорақалпоғистон Республикаси Элликаля тумани “Бустон чиккен” фермер хўжалигида сақланаятган истиқболли товук кроссларидан олинган тухум намуналари.

**Тадқиқот натижалари.** Тухум оғирлиги бу асосан, маҳсулдорлигини ва тухум навини белгиловчи кўрсаткич ҳисобланади. Тухум оғирлигига бир қанча омиллар таъсир кўрсатиб, биринчи навбатда товуклар ёши ҳисобланади. Тухум қўядиган товукларнинг генетик салоҳиятини рўёбга чиқариш қобиляти кўп жиҳатдан озиклантириш, парваришлаш, ветеринария хизматига боғлиқдир. Агар бу талаблар бажарилмаса, товуклар ўзининг имкониёт даражасидаги маҳсулдорликни бермайди. Шунинг учун истиқболли кросслардан фойдаланишда уларни озиклантириш, сақлаш ишларига алоҳида эътибор қаратиш лозим.

Бизнинг тадқиқот ишларимизнинг товуклар ёши динамикасида тухум оғирлигини ўрганиш кўрсаткичлари қуйидаги 1-жадвалда ўз аксини топган.

## 1-жадвал

### Ёши динамикасида тухум вазни ўзгариши

Кўрсаткичлар	Ўлчов бирлиги	Кросслар	
		Lohmann LSL	Lohmann sandy
		(n=20)	(n=20)
		X±Sx	
22-ҳафталик даврда	грамм	54,6±0,21	53,2±0,05
30-ҳафталик даврда	грамм	59,9±0,25	60,1±0,07
52-ҳафталик даврда	грамм	62,2±0,11	63,3±0,05
72-ҳафталик даврда	грамм	65,7±0,08	66,7±0,2
Ўртача 1-бош товук учун тухум массаси	кг	18,6±0,02	19,4±0,02**

Izoh: \*\*P<0,01

Ёши динамикасида тухум вазни бўйича олинган маълумотлар (1-жадвал) шуни кўрсатадики, 22-ҳафталик даврда Lohmann-LSL кроссларига мансуб товукларда 54,6±0,21 граммни ташкил қилган бўлса, Lohmann sandy товукларида ушбу кўрсаткич 53,2±0,05 граммга тенг бўлди. 30-ҳафталик даврида бу кўрсаткич шунга мос равишда 59,9±0,25 ва 60,1±0,07 граммни ташкил қилди. 52-ҳафталик даврида эса, Lohmann-LSL товукларида 62,23±0,11 ва Lohmann sandy товукларида бўлса, 63,3±0,05 граммни ташкил қилиб, ушбу кўрсаткич, 72-ҳафталик даврида шунга мос равишда 65,7±0,08 ва 66,7±0,2 граммга тенг бўлди. Хулоса тариқасида

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

шунини айтиш мумкинки, иккала кросс товукларида ҳам ёши динамикасида тухум вазни ошиб борган энг юқори тухум вазни 22-хафталик давридан бошлаб, 72-хафталик давригача фарқланишни 1-расм маълумотларидан кўриш мумкин.



## 1-расм. Ёши динамикасида тухум вазнининг ўзгариши,%

Кросслар орасидаги фарқланишларда (1-расм) Lohmann-LSL кроссларига мансуб товукларда 22 Ҳафталик давридан 30 Ҳафталик давригача, яъний 8-кун улғайишида 13,4 %-га тухум массаси ошган бўлса, ушбу кўрсаткич Lohmann sandy товукларида 12,5 %-га ошган, кросслар ўртасидаги фарқланишлар 0,9 %-ни ташкил қилиб биринчи гуруҳдагиларда устунликни кўриш мумкин. Кросслар ўртасидаги тухумлар вазни бўйича фарқланишлар сақланиб қолган ҳолда, 30 Ҳафталик давридан 72-Ҳафталик даврига келиб, Lohmann-LSL кроссларига мансуб товукларда тухум оғирлиги 8,9 %-га ва Lohmann sandy товукларида 10,1 % бўлиб, иккинчи гуруҳ товуклари 1,2 %-га устунлик қилди. Ҳар бир дона товук тухуми вазни уларнинг умумий тухум оғирлигини (кг.да) белгилашда катта аҳамият касб этади. Хулоса қилиб айтиш мумкинки, иккала кросс товукларида 22-Ҳафталик давридан 30-Ҳафталик давригача тухум вазни бўйича, жадал суратда ортишиши кўриш мумкин.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль



**2-расм. Ўртача 1-бош товуқ учун тухум массаси, кг**

Умумий тухум маҳсулдорлиги Lohmann-LSL кроссларига мансуб товуқларда 18,6 кг ни ташкил қилган бўлса, Lohmann sandy товуқларида бу кўрсаткич 19,4 кг ни ташкил қилиб, иккинчи гуруҳ товуқлари 0,8 кг га устунлик қилди.

### Фойдаланилган адабиётлар руйхати

1.Эрматов Ю.А, Алимбаев.Б.К Эллиққала ҳудудида урчитилаётган "Ломанн браун-классик" ва "Ломанн-сенди" товуқ кроссларининг тухум маҳсулдорлиги. // ж «Чорвачилик ва насилчилик иши» №01 (24).2022.Тошкент. Б.- 26-27

2.Эрматов. Ю.А Алимбаев.Б.К. Импорт қилинаётган товуқ кроссларининг тухум маҳсулдорлиги. // ж «Чорвачилик ва насилчилик иши» №04 (21).2021.Тошкент. Б.- 28-31

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

## PEDAGOGNING TADBIRLARNI TASHKIL ETISHDA IJODIY VA TASHKILIY JARAYONLAR UYG'UNLIGI

G'aybullayev Ruslan Asliddinovich

Osiyo Xalqaro universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tadbirlarni tashkil etishda ijodiy va tashkiliy jarayonlar uyg'unligi haqida so'z boradi .

**Kalit so'zlar:** Badiiy so'z ,raqs, rejalashtirish, tashkiliy madaniyat.

Ijrochilar va badiiy janrlar ustida ishlashda badiiy so'z muhim ahamiyatga ega.

Badiiy so'z - Ta'sirchan vositalardan biri bo'lib aytilmoqchi bo'lgan fikrni badiiy-emotsional tarzda yetkazib berishga xizmat qiladi. Madaniy tadbirlarda badiiy so'zning she'r o'qish, prozaik va she'riy monologlar, juft yoki ko'pchilik tomonidan o'qiladigan deklamatsiyalar kabi turlaridan keng foydalaniladi. Yana bir ko'pchilik tomonidan e'tirof etiladigan janrlardan biri bu raqsdir.

Raqs - keng ommalashgan nafis harakatlar va ma'lum ritmik tuzilishlar bilan badiiy obraz yaratishga asoslangan san'atning bir turidir. Raqsdagi bu plastik va ritmik harakatlar musiqa bilan chambarchas bog'liq holda davom etadi. Har bir millat elatning milliy raqsi mavjud bo'lib, ushbu milliy raqsida qadriyati ,madaniyati, ma'naviyati ,milliyliги aks ettirilgan bo'ladi.

Masalan : Ruslarda "Kalinka", Gruznlarda "Lezginka", O'zbeklarda "Mustahzod", "Munojot" milliy raqs turiga kiradi .

Madaniy tadbirlar bir qancha san'at turlarining ishtirokida tashkil etiladi. Unda musiqa san'ati, raqs, badiiy bezak, rejissura, ijodkorlik mahorati, turli jamoalarning chiqishlari va boshqalarning ishtirokida tashkil etilishi haqida yuqorida aytib o'tgan edik, Bitta tadbirda bir qancha san'at turlarining sintezidan foydalanamiz. Madaniy tadbirlarda eng ko'p faoliyat yuritadigan badiiy jamoalardan biri bu havaskorlik teatr jamoalaridir.

Turli ansambllar, ijodiy guruhlar bilan ish olib borishda tadbir tashkilotchilari ular bilan ishlash uslublarini aniq reja va jadval asosida tashkil etishlari lozim.

Tadbirda qatnashadigan ijodiy guruhlarini repertuarlari bilan tanishish, tanlash, ma'qul kelganini ustida yana ishlash, tozalash ishlarini tadbir tashkilotchisi vaqtni to'g'ri taqsimlagan holda amalga oshirishi zarur. Chunki, hamma guruhlarini bir vaqtga chaqirib qo'yib, ularni vaqtini bekorga olmaslik uchun tadbir repertsiyalarini boshlashdan oldin ularni alohida-alohida eshitib, ko'rib, repertuarini tasdiqlagandan so'nggina ularni bir paytga chaqirib ishlash kerak. Ko'pgina



# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

holatlarda hammani repititsiyaga chaqirib qo'yishadi-da, kimdir kelmay qolgan bo'lsa o'shani kutib olishaveradilar.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishda musiqiy jamoalarning (estrada, milliy va h.k) faoliyatni ham hisobga olish muhimdir. Hammaga ma'lumki, hech bir tadbirni musiqasiz tasavvur qilish mumkin emas. Musiqiy ansambllar bilan ishlashning o'ziga xosligi shundaki, ular ham tadbirning asosiy yetakchi vositalaridan hisoblanadi. Musiqiy ansambllarning repertuari tasdiqlangandan so'ng ularning texnik jihatlari, kerakli apparaturalar, kostyumlar va boshqalar hal qilinadi. Ba'zi bir xonandalarga xos bo'lgan bir yomon odat borki, men o'z qo'shig'imni yaxshi aytib beraman, repititsiyalarga kelmasam ham bo'ladi, degan xato fikrni aytadilar. Aslida tashkilotchi uchun uning qo'shig'idan ham burun, sahnaga kirish-chiqish, joylashishi, o'zini tutishi, salomlashishi, kostyumlarning mosligi, ansambl va tomoshabinlar bilan munosabatlari, xayrlashib chiqib ketishlari va boshqa tomonlari qayta-qayta ishlashi muhimdir. Masalan, keng maydonlarda yoki noan'anaviy sahnaviy kengliklarda o'tadigan tadbirlarda repititsiyalarni qayta-qayta o'tkazish imkoniyati bo'lmaydi. Shuning uchun reja puxta ishlanishi kerak va bunda hech kimning adashishga haqqi yo'q.

Bir so'z bilan aytganda, tadbir tashkilotchisi badiiy jamoalarning vazifalarini aniq tushuntirishlari kerak. Turli janrdagi ijrochilarning chiqishlari tomoshabinning ko'z oldida xuddi film ko'rganday o'tishi kerak. Shuning uchun bunda ortiqcha pauzalar, dekoratsiyalarni almashtirishdagi qo'polliklar, bir nomerdan ikkinchi nomerga otayotgandagi ijrochilarni turtilib-surtilib ketishlari, sahna pardasi bilan ehtiyotsizliklar, sahnaning orqa tomonidagi ortiqcha shovqinlar va boshqa noqulayliklar tadbirning saviyasini tushirib yuborishi mumkin. Ba'zan ijrochilar mikrofon oldiga kelib, uni ovoz chiqarib tekshirib ko'radilar. Bu ham o'ta xunuk manzarani namoyon etadi. Shunga o'xshash ba'zi noqulayliklarning oldini olish uchun tadbir tashkilotchilari avvalo tushuntirish ishlarini olib borishlari kerak.

Madaniy tadbirlar tashkilotchilari badiiy jamoalar bilan ishlashda o'ta sinchikovlik bilan ish olib borishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Jamoaning dizayni, liboslari, repertuarlarining tadbir mavzusiga mos kelish yoki kelmasligi, tadbir ishtirokchilarining faolligini oshirish, tadbirning mazmunini yoritishda turli ifodaviy va ta'sirchan vositalardan unumli foydalanish va tadbirni boshqarishda tadbir tashkilotchilaridan maxsus bilim va malaka hamda katta tajriba talab qilinadi.

Har bir tadbirni tashkil etishda ishtirokchilarning aktyorlik mahorati muhim ahamiyatga ega. Albatta, bu o'rinda aktyor oldida qo'yiladigan bir qator talablar bor

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

. Актыор хар сафар мен томошабин олдига қай мақсадда чиқмоқдман, уни нимага undamoqchiman, нимага ishontirmoqchiman degan savollarga javob axtarib topsagina tomoshabin yoki tinglovchi yuragidan joy oladi. Актыор xoh u professional bo'lsin, xoh havaskor bo'lsin, uning maqsadi bitta - tomoshabinga xizmat qilish. Lekin o'z mahoratining qanchalik ta'sirli, tabiiyligi bilan tomoshabinni qanchalik larzaga sola bilishi bilan bir-biridan farq qilishi mumkin,

Odatda, sozandaning mahorati deganda, uning soz chalish texnikasini qanchalik mukammal egallaganiga qarab baho beriladi. Актыорлик mahorati ham актыорлик texnikasini naqadar puxta o'zlashtirganligiga qarab baholanadi.

Xulosa qilib aytganda ,har bir tadbirni tashkil etishda hattoki eng kichkina nuqtaga e'tibor bersa shundagina tadbir mukammal chiqadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <http://www.teatr.uz>.
2. <http://www.bilim.uz>
3. <http://www.ziyo.edu.uz>
4. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali
5. Сайфуллаева, Н. Б. (2021). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ КЛАССНЫХ УРОКОВ. Вестник науки и образования, (15-3 (118)), 40-42.
6. Сайфуллаева, Н. Б. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКОГО ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ. In НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ (pp. 10-12).
7. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ КОМПЬЮТЕРНЫМ НАУКАМ. Universum: технические науки, (4-1 (109)), 41-43.
8. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ МАТЕМАТИКИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК ДЛЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ: Сайфуллаева Нозима Баходировна, преподаватель кафедры “Теория начального образования”, Бухарский государственный университет. Город Бухара. Республика Узбекистан. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1), 305-307.
9. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). Методы Организации Уроков Математики В Начальных Классах С Использованием Цифровых Технологий. Miasto Przyszłości, 35, 388-390.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

10. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). РОЛЬ МАТЕМАТИКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ. *PEDAGOGS journali*, 1(1), 292-292.
11. Сайфуллаева, Н. Б. (2019). Роль дидактических игр в умственном развитии учащихся в математике начального класса. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILISOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY* (pp. 102-106).
12. Сайфуллаева, Н. Б., & Марданова, Ф. Я. (2021). НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ ПО ВЫСШЕЙ МАТЕМАТИКЕ. *Проблемы науки*, 84.
13. Сайфуллаева, Н. Б. (2020). Важные особенности дидактических игр в процессе обучения математике в начальных школах. In *ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ* (pp. 60-62).
14. Сайфуллаева, Н. Б., & Мурадова, Я. М. (2020). Пути эффективного использования методов обучения математике в начальных классах. In *EUROPEAN RESEARCH* (pp. 121-123).
15. Сайфуллаева, Н. Б. (2022). Методы определения потребностей обучающихся в процессе использования облачных технологий в образовании. *Universum: технические науки*, (2-1 (95)), 57-59.
16. Сайфуллаева, Н. Б., & Саидова, Г. Э. (2019). Повышение эффективности занятий, используя интерактивные методы в начальном образовании. *Научный журнал*, (6 (40)), 101-102.
17. Bahodirovna, S. N. (2023). KINDERGARTEN, SCHOOL AND FAMILY PARTNERSHIP IN TEACHING CHILDREN IN MATHEMATICS. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 383-388.
18. Bahodirovna, S. N. (2023). FORMING CHILDREN'S IDEAS ABOUT THE SIZE OF OBJECTS AND THEIR MEASUREMENT. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 1(3), 102-107.
19. Bahodirovna, S. N. (2023). Organization Forms of the Development of Primary Mathematical Concepts in Children. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 138-143.
20. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПО МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Проблемы педагогики*, (2 (63)), 15-17.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

21. Ruziyeva, M. Y. (2020). About color symbols in folklore. *Journal of critical reviews. ISSN-2394-5125 VOL, 7*.
22. Ruziyeva, M. Y., & Aslonova, S. S. (2021). Theoretical and Practical Foundations of Teaching Folklore In Primary School. *Middle European Scientific Bulletin, 10*.
23. Ruziyeva, M. Y., & Lobar, S. (2023). Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature.
24. Yoqubovna, R. M. (2017). Expression of Attitude to Colors in Turkic National Ritual Songs. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 6(1)*, 54-68.
25. Yokubovna, R. M. (2020). About color symbols in folklore. *JCR, 7(17)*, 461-466.
26. Ruziyeva, M. Y., & Lobar, S. (2023). Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature.
27. Bahrievna, P. N., & Ro'ziyeva, M. Y. (2023). Reforms and Innovations in the Educational System in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(6)*, 47-51.
28. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). COLOR SYMBOLISM IN UZBEK FOLKLORE. *Theoretical & Applied Science, (5)*, 277-284.
29. Ruzieva, M. Y. (2022). SYMBOLISM OF MYTH, SYMBOL AND COLOR. *Ann. For. Res, 65(1)*, 2719-2722.
30. Ruzieva, M. (2016). Colour and its psychoanalytical interpretation in folklore. *Язык и культура (Новосибирск), (23)*, 127-130.
31. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). Color symbolism in Uzbek folklore. *ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85)*, 277-284.
32. Bahrievna, P. N., & Ro'ziyeva, M. Y. (2023). Reforms and Innovations in the Educational System in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(6)*, 47-51.
33. Ro'ziyeva, M. Y. (2021). O'qish darslarida fasllar bilan bog'liq matnlar va ularning ahamiyati: DOI: 10.53885/edinres. 2021.86. 66.011 Ro 'ziyeva MY, Boshlang 'ich ta'lim nazariyasi kafedراسи mudiri, fffd (PhD) Madinabonu Xayrulloeva, BuxDU, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4 kurs talabasi. In *Научно-практическая конференция* (pp. 23-24).
34. Ro'ziyeva, M. (2021). FOLKLORSHUNOSLIKDAGI YANGI BOSQICHLAR VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI:

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

Mohichehra Ro'ziyeva, BuxDu Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedراسи mudiri, PhD, dotsent. In *Научно-практическая конференция* (pp. 21-22).

35.

36. Jalolov, T. S. (2023). MATH MODULES IN C++ PROGRAMMING LANGUAGE. *Journal of Universal Science Research*, 1(12), 834-838.

37. Jalolov, T. (2023). UNDERSTANDING THE ROLE OF ATTENTION AND CONSCIOUSNESS IN COGNITIVE PSYCHOLOGY. *Journal of Universal Science Research*, 1(12), 839-843.

38. Ikromova, S. (2023). INTERPRETATION OF THE PSYCHOLOGICAL SAFETY FACTOR IN RELATION TO DESTRUCTIVE INFORMATION IN ADOLESCENTS. *Modern Science and Research*, 2(9), 390-394.

39. Ikromova, S. (2023). CONCEPT OF IDEOLOGY AND FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY IN YOUTH STUDENTS. *Modern Science and Research*, 2(6), 1223-1226.

40. Ikromova, S. (2023). FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY TO DESTRUCTIVE INFORMATION IN TEENAGERS. *Modern Science and Research*, 2(5), 1009-1014.

41. Ikromova, S. A. (2022). MILLIY VA DINIY QADRIYATLARNING INSON TARBIYASIDAGI O'RNI. *Экономика и социум*, (12-2 (103)), 675-678.

42. Ikromova, S. A. (2023). SHAXS OG 'ISHGAN XULQINING KO 'RINISHLARI VA DESTRUKTIV AXBOROTLARNING KO 'RINISHLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(10), 528-532.

43. Akbarovna, I. S. (2023). YOSHLARDA DESTRUKTIV G'OYALARGA QARSHI IMMUNITET HOSIL QILISH OMILLARI.

44. Akbarovna, I. S. (2023). TALABA YOSHLARDA MAFKURA TUSHUNCHASI VA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH.

45. Akbarovna, I. S. (2023). O'SMIRLARDA DESTRUKTIV AXBOROTLARGA NISBATAN MAFKURAVIY IMMUNITET SHAKLLANTIRISH.

46. Akbarovna, I. S. (2023). DESTRUKTIV AXBOROTLARGA NISBATAN MAFKURAVIY IMMUNITET SHAKLLANTIRISH IJTIMOY MUAMMO SIFATIDA. *Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari*, 1(6), 26-29.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

47. Akbarovna, I. S. (2023). MILLIY HARAKATLI O'YINLARNING BOLALAR TARBIYASIDAGI IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

48. Sitara Akbarovna Ikromova. (2023). Formation of Ideological Immunity to Destructive Information. Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599), 1(9), 50–54.

49. Sobirovna, S. Y. (2023). Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ekologik tarbiya berish. SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR, 1(4), 160-166.

50. Akbarovna, I. S. (2023). Study of the Formation of Ideological Immunity By Foreign and Russian Researchers. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 235-239.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA TARBIYAVIY TRENINGLARNING AHAMIYATI

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi  
Hojiyeva Nasiba Bahodirovna

**Annotatsiya:** Boshlang'ich ta'lim mustahkam poydevor yaratish orqali bolalarda har qanday sohada muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, jismoniy komponent, xarakter, madaniy rivojlanish.

Har qanday xalqning tayanchi, ta'lim-tarbiya deyishadi. Mamlakat iqtisodiyoti, jamiyati va intellektual salohiyatining rivojlanishi asosan fuqarolarning bilim darajasiga bog'liq. Boshlang'ich ta'lim kengashi ta'lim tizimining poydevoridir. Bolaning erta rivojlanishi yaxshi va yaxshi tuzilgan boshlang'ich ta'lim tizimi bilan ta'minlanadi.

Boshlang'ich ta'lim ta'lim tizimining muhim omilidir. Bu bolaning hayotidagi birinchi qadam bo'lib, keyingi o'rganish uchun poydevor qo'yadi. Boshlang'ich ta'lim bolalarga samarali hayot kechirishlari uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikma va bilimlarni beradi. Boshlang'ich ta'lim rasmiy ta'limning birinchi bosqichi bo'lib, u uch komponentga bo'linadi - jismoniy, intellektual va ijtimoiy.

Jismoniy komponent sog'liq, ovqatlanish va gigienani o'z ichiga oladi. Intellektual komponent savodxonlik va hisobni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy komponent bolalarning boshqalar bilan muloqot qilishni o'rganish usullarini o'z ichiga oladi. Boshlang'ich ta'limning ushbu uchta asosiy tarkibiy qismiga qo'shimcha ravishda, xotira va muammolarni hal qilish qobiliyatlari kabi bolaning kognitiv qobiliyatlari nuqtai nazaridan rivojlanishi kabi kichikroq qismlar ham mavjud.

Boshlang'ich ta'limning maqsadi bolalarga kelajakda muvaffaqiyatga erishish uchun poydevor yaratishdir. Shuningdek, u bolalarga keyingi hayotlarida muvaffaqiyatga erishishga yordam beradigan yaxshi odatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Hindistonda boshlang'ich maktablar bola uchun baxt, xavfsizlik, xavfsizlik va ishonch muhitini yaratishga intiladi, bu esa yuqori darajada rag'batlantiruvchi, g'amxo'rlik muhitini ta'minlaydi. Yosh bolalar erta yoshda ijodiy va izlanuvchan ongga ega bo'lishni o'rganishlari juda muhimdir. Boshlang'ich ta'limning maqsadi keyingi ta'lim uchun yaxshi zamin yaratish, bolalarni maktabdan tashqari hayotga tayyorlash, ularga turli madaniyatlar, tillar va qadriyatlarni o'rgatishdir.

Boshlang'ich ta'lim natijasida farzandingizning o'ziga bo'lgan ishonchi ortib, bugungi raqobatdosh dunyoda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur ko'nikmalarga ega

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

51. Ravshvnovna, K. S. (2023). THE ROLE OF THE CULTURE OF COMMUNICATION IN MODERN EDUCATION AND EDUCATION. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(3), 356-361.

52. Ravshanovna, X. S. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILAR VA O'QUVCHILAR O 'RTASIDAGI MULOQOT JARAYONI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR. *Лучший инноватор в области науки*, 1(1), 814-819.

53. Sidiqova Yulduz Sobirovna. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMDA NUTQ, MULOQOT O'QISH VA YOZISH MALAKALARINING SOHALARI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(1), 52–62.

54. Isomova, F. A. T. Q. (2022). MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 947-949.

55. Isomova Farog'at Tojiddin qizi. (2023). THE CONTENT OF THE FORMATION OF SPEECH AND READING COMPETENCES OF PRESCHOOL CHILDREN. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(11). Retrieved from <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd/article/view/444>.

56. Hikmatovna, M. N. (2023). Tarbiyaning Maqsad Va Vazifalari. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 386-388.

57. Hikmatovna, M. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN METOD VA VOSITALAR. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 339-344.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

58. Salomat, G. L. The essence of the content of the concept of digital educational resources and its role in primary education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. 2020, Volume: 10, Issue: 5.

59. Gafurovna, L. S., & Pirniyazova, N. V. (2023). A System for Developing The Skills of A Future Primary School Teacher in the Use Of Digital Educational Resources. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 258-262.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

## PSIXOLOGIK MASLAHAT JARAYONIDA PSIXOLOG-KONSULTANTNING SHAXS XUSUSIYATLARI VA KASBIY DEFOTMATSIIYASI

**Olimov Temir Hasanovich**

*Osiyo xalqaro universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Jumaev Erali**

*Osiyo Xalqaro universiteti pedagogika-psixologiya yonalishi magistranti*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada psixologik maslahat ishlarini tashkil etish masalalariga uni doimiy o'tkazadigan xonani tanlash, agarda psixologik maslahat boshqa xonalardan alohida, boshqa ishlar bilan shug'ullanadigan odamlardan uzoqda bolishi, psixologik maslahat jarayonida psixolog-konsultantning shaxs xususiyatlari va kasbiy defotmatsiyasi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar** psixolog-konsultant, shaxs, xususiyat, kasb, defotmatsiya, psixolog, psixologik maslahat, soat, maxsus jihozlangan xona va yakkama-yakka, yuzma-yuz.

Psixologik maslahat ishini tashkil etish. Psixologik maslahat ishlarini tashkil qilish zaruriyati quyidagi sharoitlarda yuzaga keladi. Birinchidan, u yoki bu tashkilotda ishlovchi ko'pchilik odamlarda psixologik xususiyatdagi turli muammolar bo'ladi. Bu muammolarni ular mustaqil hal eta olm aydilar. Gap, o'zini bemor deb hisoblamaydigan va shifokorga yordam so'rab murojaat qilishni xohlamaydigan lekin psixolog maslahatiga quloq tutadigan va uning tavsiyalariga amal qiladigan odamlar haqida bormoqda. Jamiyatda yashovchi ko'pchilik odamlarda hayot sharoitlari ancha va uzoq vaqtga yomonlashganda, raqobatchilik keskin ko'payganda va hayot keskinligi o'sganda odatda bunday muammolar ommaviy paydo bo'ladi. Bularning barchasi erkinlik cheklangan va jamiyatni yuqoridan boshqarish bilan totalitar jamiyatdan bozor iqtisodiyotiga va siyosiy erkinlikka asoslangan jamiyatga o'tishda mavjud bo'ladi.

Ikkinchidan, alohida psixologik maslahatni yaratish ehtiyoji u yoki bu ijtimoiy birlikda (jamiyat, tashkilot) o'zining psixologik maslahati mavjud bo'lib, uning ishi samarasini oshirish zarur bo'lgan sharoitlar yuzaga keladi. Bunga odatda mutaxassislar faoliyatining yagona tashkilot doirasida tashkil etish va vazifalarini taqsimlash hisobiga erishiladi. Vazifalarni taqsimlash o'z navbatida ishida chuqur ixtisoslashishni ko'zda tutadi, buning hisobiga yuksak kasb mahorati va ish sifatini oshirishga erishiladi.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

Amaliy psixologiyada bu psixolog-mutaxassislar orasida kamida uch faoliyat sohasi: psixodiagnostika, psixokorreksiya va psixologik maslahat bo'yicha kasbiy vazifalarining taqsimlanishini ko'zda tutadi.

Ixtisoslashtirishni yanada chuqurlashtirish ko'rsatib o'tilgan alohida faoliyat sohalari har biri ichida yanada tor vazifalarning ajralishini ko'zda tutadi. Shu mazmunda intim-shaxsiy, oilaviy, psixologik-pedagogik va amaliy maslahat sohalarida alohida amaliy psixologlar doirasida ixtisoslashish juda to'g'ri boladi.

Psixologik maslahat ishlarini tashkil etish masalalariga uni doimiy o'tkazadigan xonani tanlash ham kiradi. Agarda psixologik maslahat boshqa xonalardan alohida, boshqa ishlar bilan shug'ullanadigan odamlardan uzoqda bo'lsa yaxshi va qulay bo'ladi. Biroq hozirgi sharoitlarda bunga erishish deyarli mumkin emas. Shunda boshqacha tamoyillarga amal qilish kerak bo'ladi. Birinchi navbatda psixologik maslahat o'tkazish mumkin bo'lmagan joyda uni tashkil etishga iloji boricha yo'l qo'ymaslik. Masalan, psixologik maslahat ishlarini bir sharoitda olib borish va psixologmaslahatchining mijoz bilan tinch ishlashiga halal beruvchi sharoitlar mavjud korxonalar yaqinida yoki ichida psixologik maslahatni o'tkazish mumkin emas.

Psixologik maslahatlarni savdo korxonalarida yaqinida va ichida, transport yo'llari yaqinida umuman, shovqin borjoylarda o'tkazish umuman mumkin emas. Psixologik maslahatlar uchun kasalxonalar va klinikalar yaqinida, ularning binolarida esa umuman joylashtirib bo'lmaydi, bunday qo'shni bolish mijozning xayolida u kasal odam degan fikr paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Psixologik maslahatni militsiya bo'limlari, qonunbuzarlarni hibsdan ushlab joylari, harbiy va boshqa shunga o'xshash idoralar yaqinida o'tkazish mumkin emas. Shahardan uzoqda psixologik maslahatxonasini joylashtirish mumkin emas, chunki bu mijozlar uchun qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi, psixologik maslahat uchun tinch, yaqin joy, masalan turar joy binosi yoki ta'lim, madaniyat muassasasi binosida xona topilsa juda yaxshi bo'ladi.

Psixologik maslahat ishini tashkil qilishni yana bir umumiy masalasi - bu kadrlarni to'plash masalasidir. Psixologik maslahat ixtisosligi bo'yicha amaliy psixologiya sohasida oliy psixologik ta'limga ega odamlar psixolog-maslahatchi sifatida ishlasalar juda o'rinli bo'ladi, biroq hozirgi kunda umumiy psixologik ta'lim har doim ham bunday ixtisoslikni ta'minlay olmaydi va psixologmaslahatchi mustaqil ish boshlar ekan, bu sohada amaliyot davomida o'rganishiga to'g'ri keiadi.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

Psixologik maslahatda ishlovchi yordamchi xodimlar ham psixologik maslahat to'g'risida va psixolog-m aslahatchi ishi to'g'risida umumiy bo'lsa ham tasavvurga ega bo'lsalar yaxshi bo'ladi.

Psixologik maslahat ish tartibi. Mijozning vaqti, qiziqishlari va ehtiyojlariga mos keladigan psixologik maslahat ish tartibi mijozlar uchun qulay hisoblanadi. Mijozlar esa ko'pincha ulaming ishlari boshlanishidan oldin yoki ish yakunlanishi bilan hamda ular yashaydigan va ishlaydigan joyda psixologik maslahat olishni hohlaydilar, ko'pchilik odamlars oat 9 - 10 dan to 17 - 18 gacha ishlashlari sababli soat 8 - 9 dan 18 - 20 gacha vaqt oralig'ida bo'lgan ish tartibi psixologik maslahat o'tkazish uchun eng qulay hisoblanadi. Shu bilan birga ertalab to'la psixologik maslahatni o'tkazish uchun nisbatan kam vaqt bo'ladi, shuning uchun ertalablari bir - ikki soat yetarli bo'lgan maslahatning kichik bir siklini rejalashtirish kerak.

Psixologik maslahat har kuni ertalab va kechqurun yoki bo'lmasa bir kun ertalab, bir kun esa kechqurun almashib ishlasa yaxshi bo'ladi, bunda dam olish kunlaridan biri ham kiritilsa foydali bo'ladi, chunki ko'pchilik mijozlar shanba kunlari o'zlarining asosiy ishlaridan ozod bo'ladilar. Psixologik maslahat kun tartibidan mijozlar uchun o'tkaziladiganini, xodimlar uchun mo'ljallangan ishlardan farqlash (birinchisini shartli ravishda tashqi, keyingisini ichki deb ataymiz) lozim.

Psixologik maslahatning muvaffaqiyati mutaxassisning shaxsiy imkoniyatlari hamda mehnat sharoitiga, shuningdek yordamchi shaxslarga bog'liq. Psixolog-maslahatchi maslahat o'tkazish, ya'ni mijoz bilan to'g'ridan to'g'ri ishlashidan tashqari, faoliyatining boshqa turlari bilan ham shug'ullanadi.

Bu ishlar uning psixologik — maslahat muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Bu ishlar, xususan, psixodiagnostika, uning natijalarini qayta ishlab chiqish hamda sharhlash, kasbiy va boshqa masalalarda hamkasblar bilan muhokama yuritish ish bilan bog'liq muammolar, mijoz bilan maslahat davrida olgan axborotlarni tahlil etish, hujjatlar ustida ishlash, psixologik maslahatni me'yoriy va samarali o'tishini ta'minlovchi barcha shu kabi ishlardan iborat. Agar yuqoridagi barcha ma'lumotlarni e'tiborga olib, psixologik maslahat o'tkazish uchun mutaxassis o'rtacha qancha vaqt sarflashi mumkinligi (mijoz bilan shaxsan ishlash nazarda tutiladi), shuningdek psixologik maslahat bilan bog'liq barcha ishlar, mijoz bilan ishlash vaqti hamda boshqa masalalarga sarflanadigan vaqt bir-biriga to'g'kri kelishi zarur.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Olimov, T. H. (2019). SPIRITUAL AND MORAL ASPECTS OF THE FORMATION OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS OF HIGHER



# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

EDUCATION. *Theoretical & Applied Science*, (12), 662-665.

2. Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. *Pedagogical skill-Bukhara*, 5.

3. Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. *Pedagogical skill-Bukhara*, 2.

4. Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. *Social and humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent*, 4.

5. Olimov, T. (2020). BO'LAJAK OLIY MA'LUMOTLI MUTAXASISLARDA FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM YO'NALISHLARI. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 1(1), 20-27.

6. Xolboyeva, G., & Olimov, T. (2023). O 'SMIRLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Ilm-fan va ta'lim*, 1(7).

7. Xolboyeva, G., & Olimov, T. (2023). O 'SMIRLARDA STRESSLI VAZIYATLARDA KOPING XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Ilm-fan va ta'lim*, 1(7).

8. Olimov, T. THE ROLE OF NATIONAL SPIRITUALITY AND VALUES IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS WITH HIGHER EDUCATION.

9. Olimov, T. THE ROLE OF NATIONAL SPIRITUALITY AND VALUES IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS WITH HIGHER EDUCATION.

10. Сайфуллаева, Н. Б. (2021). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ КЛАССНЫХ УРОКОВ. *Вестник науки и образования*, (15-3 (118)), 40-42.

11. Sobirovna, S. Y. (2023). Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ekologik tarbiya berish. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(4), 160-166.

12. Сайфуллаева, Н. Б. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКОГО ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ. In *НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ* (pp. 10-12).

13. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ КОМПЬЮТЕРНЫМ НАУКАМ. *Universum: технические науки*, (4-1 (109)), 41-43.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

14. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ МАТЕМАТИКИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК ДЛЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ: Сайфуллаева Нозима Баходировна, преподаватель кафедры “Теория начального образования”, Бухарский государственный университет. Город Бухара. Республика Узбекистан. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1), 305-307.

15. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). Методы Организации Уроков Математики В Начальных Классах С Использованием Цифровых Технологий. *Miasto Przyszłości*, 35, 388-390.

16. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). РОЛЬ МАТЕМАТИКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 292-292.

17. Сайфуллаева, Н. Б. (2019). Роль дидактических игр в умственном развитии учащихся в математике начального класса. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILISOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY* (pp. 102-106).

18. Сайфуллаева, Н. Б., & Марданова, Ф. Я. (2021). НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ ПО ВЫСШЕЙ МАТЕМАТИКЕ. *Проблемы науки*, 84.

19. Сайфуллаева, Н. Б. (2020). Важные особенности дидактических игр в процессе обучения математике в начальных школах. In *ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ* (pp. 60-62).

20. Сайфуллаева, Н. Б., & Мурадова, Я. М. (2020). Пути эффективного использования методов обучения математике в начальных классах. In *EUROPEAN RESEARCH* (pp. 121-123).

21. Сайфуллаева, Н. Б. (2022). Методы определения потребностей обучающихся в процессе использования облачных технологий в образовании. *Universum: технические науки*, (2-1 (95)), 57-59.

22. Сайфуллаева, Н. Б., & Саидова, Г. Э. (2019). Повышение эффективности занятий, используя интерактивные методы в начальном образовании. *Научный журнал*, (6 (40)), 101-102.

23. Bahodirovna, S. N. (2023). KINDERGARTEN, SCHOOL AND FAMILY PARTNERSHIP IN TEACHING CHILDREN IN MATHEMATICS. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 383-388.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

24. Bahodirovna, S. N. (2023). FORMING CHILDREN'S IDEAS ABOUT THE SIZE OF OBJECTS AND THEIR MEASUREMENT. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 1(3), 102-107.

25. Bahodirovna, S. N. (2023). Organization Forms of the Development of Primary Mathematical Concepts in Children. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 138-143.

26. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПО МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Проблемы педагогики*, (2 (63)), 15-17.

27. Умурзоков, Д. (2023). МИЛЛИЙ ЎЗИНИ ЎЗИ АНГЛАШНИНГ ПСИХОЛОГИК МЕХАНИЗМЛАРИ. *Interpretation and researches*, 1(6).

28. Умурзоков, Д. Х. (2023). МИЛЛИЙ МАНСУБЛИК БОРАСИДАГИ ИЛК ЎСПИРИНЛАРНИНГ ТАСАВВУРЛАРИДА ИЖТИМОЙ РОЛЛАРНИНГ ЎРНИ. *Academic research in educational sciences*, 4(TMA Conference), 567-572.

29. Умурзаков, Д. Х. (2014). ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В СОЗНАНИИ РАННИХ ПОДРОСТКОВ. *Человеческий фактор: Социальный психолог*, (1), 110-116.

30. Умурзоков, Д. Х., & Расулова, Ю. Б. ИЛК ЎСПИРИНЛАРНИНГ ЁШГА ОИД ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ ВА УЛАРНИ МИЛЛАТГА МАНСУБЛИКНИ АНГЛАШНИ ШАКЛЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. *PSIXOLOGIYA* Учредители: Бухарский государственный университет, (S2), 130-132.

31. Kholmurodovich, U. D., & Nuralievna, R. Z. (2021, February). CAUSES AND MOTIVATIONS OF CONFLICTS. In *E-Conference Globe* (pp. 26-28).

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

32. Kholmurodovich, U. D., & Nuriddinovich, S. A. (2021, February). SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL CAUSES OF MINOR CRIMES. In E-Conference Globe (pp. 23-25).
33. Умурзаков, Д. Х., & Жураева, Н. А. (2020). Женщины как объект управленческой деятельности. *European science*, (4 (53)), 45-47.
34. Ruziyeva, M. Y. (2020). About color symbols in folklore. *Journal of critical reviews. ISSN-2394-5125 VOL, 7*.
35. Ruziyeva, M. Y., & Aslonova, S. S. (2021). Theoretical and Practical Foundations of Teaching Folklore In Primary School. *Middle European Scientific Bulletin, 10*.
36. Ruziyeva, M. Y., & Lobar, S. (2023). Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature.
37. Yoqubovna, R. M. (2017). Expression of Attitude to Colors in Turkic National Ritual Songs. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 6(1)*, 54-68.
38. Yokubovna, R. M. (2020). About color symbols in folklore. *JCR, 7(17)*, 461-466.
39. Ruziyeva, M. Y., & Lobar, S. (2023). Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature.
40. Bahrievna, P. N., & Ro'ziyeva, M. Y. (2023). Reforms and Innovations in the Educational System in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(6)*, 47-51.
41. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). COLOR SYMBOLISM IN UZBEK FOLKLORE. *Theoretical & Applied Science, (5)*, 277-284.
42. Ruzieva, M. Y. (2022). SYMBOLISM OF MYTH, SYMBOL AND COLOR. *Ann. For. Res, 65(1)*, 2719-2722.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

43. Ruzieva, M. (2016). Colour and its psychoanalytical interpretation in folklore. *Язык и культура (Новосибирск)*, (23), 127-130.
44. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). Color symbolism in Uzbek folklore. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 05 (85), 277-284.
45. Bahrievna, P. N., & Ro'ziyeva, M. Y. (2023). Reforms and Innovations in the Educational System in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(6), 47-51.
46. Ro'ziyeva, M. Y. (2021). O'qish darslarida fasllar bilan bog'liq matnlar va ularning ahamiyati: DOI: 10.53885/edinres. 2021.86. 66.011 Ro 'ziyeva MY, Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasini mudiri, fffd (PhD) Madinabonu Xayrulloeva, BuxDU, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4 kurs talabasi. In *Научно-практическая конференция* (pp. 23-24).
47. Ro'ziyeva, M. (2021). FOLKLORSHUNOSLIKDAGI YANGI BOSQICHLAR VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI: Mohichehra Ro'ziyeva, BuxDu Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasini mudiri, PhD, dotsent. In *Научно-практическая конференция* (pp. 21-22).
48. Ikromova, S. (2023). INTERPRETATION OF THE PSYCHOLOGICAL SAFETY FACTOR IN RELATION TO DESTRUCTIVE INFORMATION IN ADOLESCENTS. *Modern Science and Research*, 2(9), 390-394.
49. Ikromova, S. (2023). CONCEPT OF IDEOLOGY AND FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY IN YOUTH STUDENTS. *Modern Science and Research*, 2(6), 1223-1226.
50. Ikromova, S. (2023). FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY TO DESTRUCTIVE INFORMATION IN TEENAGERS. *Modern Science and Research*, 2(5), 1009-1014.
51. Ikromova, S. A. (2022). MILLIY VA DINIY QADRIYATLARNING INSON TARBIYASIDAGI O'RNI. *Экономика и социум*, (12-2 (103)), 675-678.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

52. Ikromova, S. A. (2023). SHAXS OG 'ISHGAN XULQINING KO 'RINISHLARI VA DESTRUKTIV AXBOROTLARNING KO 'RINISHLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 528-532.

53. Akbarovna, I. S. (2023). YOSHLARDA DESTRUKTIV G'OYALARGA QARSHI IMMUNITET HOSIL QILISH OMILLARI.

54. Akbarovna, I. S. (2023). TALABA YOSHLARDA MAFKURA TUSHUNCHASI VA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH.

55. Akbarovna, I. S. (2023). O'SMIRLARDA DESTRUKTIV AXBOROTLARGA NISBATAN MAFKURAVIY IMMUNITET SHAKLLANTIRISH.

56. Akbarovna, I. S. (2023). DESTRUKTIV AXBOROTLARGA NISBATAN MAFKURAVIY IMMUNITET SHAKLLANTIRISH IJTIMOY MUAMMO SIFATIDA. Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari, 1(6), 26-29.

57. Akbarovna, I. S. (2023). MILLIY HARAKATLI O'YINLARNING BOLALAR TARBIYASIDAGI IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

## MAQSUD SHAYXZODA HAYOTI VA IJODINING O‘ZBEK MILLIY ADABIYOTIDAGI TUTGAN O‘RNI.

Toshkent davlat transport universiteti

**Mamurova Feruza Islamovna**

**Islomjon Iqboljon o‘g‘li Qodirov**

**ANNOTATSIYA** Ushbu maqolada xalqimizning sevimli shoiri, dramaturg, adabiyotshunos olim, tarjimon, pedagog Maqsud Shayxzodaning hayotiy kechinmalari va ijodi keng talqin qilingan. Shu bilan birga maqola Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijodiga katta qiziqish uyg‘otadi va uni mukammal o‘rganishga undaydi.

**Kalit so‘zlar:** dramaturg, tarjimon, pedagog, she‘r, undoshlarim, Toshkentnoma dostoni.

O‘zbek adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri, mashur shoir, zabardast dramaturg, adabiyotshunos olim va tarjimon Maqsud Shayxzoda 1908 yil Ozarbayjonning Oqtosh shahrida tavallud topdi. Uning otasi Ma‘sumbek o‘z zamonasining taraqqiyparvar kishilaridan biri bo‘lib shifokorlik kasbidan tashqari, san‘at, adabiyot, tarix va falsafa ilmlari bilan qiziqardi. Ularning oilasida shaharning eng ziyoli kishilari yig‘ilib, munozara va mubohasa qilishardi. Bu adabiy muhit uchun Pushkin va Lermontov, Shekspir va Balzak, Firdavsiy va Xayyom, Nizomiy va Navoiy asarlari begona emas edi. Shunday oilada tarbiya topayotgan bo‘lajak shoir boshlang‘ich va o‘rta ma‘lumotni Oqtoshda olgach, Boku Oliy pedagogika institutida sirdan o‘qidi. U 1925-yildan boshlab Ozarbayjon Maorif xalq komissarligi yo‘llanmasi bilan Dog‘istonning Darband shahrida muallimlik bilan shug‘ullandi. Shayxzoda Dog‘istonda kechgan qisqa hayoti davomida ham muallim, ham shoir, ham jurnalist, ham tanqidchi sifatida namoyon bo‘ldi. Shayxzoda 1928-yilda Toshkentga kelib, turli gazeta va jurnallar muharririyatlarida ishlaydi.

Uning fikricha “ inson ruhini tarbiyalash, nafosat tuyg‘luarini yanada baland darajaga ko‘tarish san‘atning muqaddas vasifasidir “. Yuqorida aytilganidek, avval o‘qituvchi bo‘lib ishlagan Shayxzoda keyinchalik turli gazeta va jurnallar tahririyatida muharrir, 1935-1938-yillarda O‘zbekiston Fanlar qo‘mitasi qoshidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim sifatida faoliyat yuritadi. Shayxzoda 1938-yilda ilmiy xodim lavozimidan bo‘shagach, shu yildan boshlab to umrining oxirigacha Nizomiy nomli TDPI ning o‘zbek mumtoz adabiyoti kefedrasida dotsent vazifasida ishlaydi, u yerda adabiyotshunos va adabiy tanqidchi sifatida faoliyat olib bordi.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

1950-yillarning boshlarida “xalq dushmani “ sifatida 25 yilga qamalgan shoir Stalin vafot etgach oqlanadi. Maqsud Shayxzoda 1967-yil 19-fevralda og‘ir xastalik natijasida olamdan o‘tdi. Uning qabri Forobiy qabristonida joylashgan. Vafotidan so‘ng Shayxzodaning 6 jildidan iborat bo‘lgan asarlari nashr etilgan. Adibning qilgan ijodi va xizmatlari yuksak baholanib, 2001 -yilda “Buyuk xizmatlari uchu “ ordeni bilan mukofotlangan.

Uning dastlabki asarlari 1929-yildan boshlab, e‘lon qilingan. Maqsud Shayxzoda ilmiy izlanishlar va tarjimonlik bilan ham shug‘ullangan. U Sh. Rustaveli, V. Shekspir, M. Lermontov, Fuzuliy, A.S. Pushkin, Nizomiy, Ezop, Gyote, Mirza Fatali Oxundov, Esxil, Bayron, Nekrasov, Mayakovskiy, Nozim Hikmat, Shevchenko kabi bir qator adiblar ijodidan tarjima ishlarini olib borgan. Muqimiy, Furqat, Bobur, G‘.G‘ulom, H. Olimjon, Nizomiy, Oybek, Fozil shoir, Sh. Rustaveli, Pushkin, Ostrovskiy, Chexov, Nekrasov, Shevchenko kabi adiblar hayotiga bag‘ishlangan asarlar yozgan, olim sifatida esa Alisher Navoiy she‘riyati haqida chuqur izlanish qilib, ilmiy tadqiqotlar yaratgan.

“O‘n she‘r” (1932), “Undoshlarim” (1933), “Uchinchi kitob” (1934), “Jumhuriyat” (1935) to‘plamlarining nashr etilishi adabiyotga o‘ziga xos ovozi shoir kirib kelayotganidan darak berdi.

Uning “Kurash nechun”, “Jang va qo‘shiq”, “Kapitan Gastello”, “Ko‘ngil deydi...” she‘riy to‘plamlari, “Jaloliddin Manguberdi” tarixiy dramasi kabi asarlari urush yillarida yozilgan bo‘lib, jangchilarning qaxramonligi, vatanga muhabbati, front ortidagi insonlarning sadoqatli mehnati tasvirlangan.

“O‘n besh yilning daftari”, “Olqishlarim”, “Zamon torlari”, “Shu‘la”, “Chorak asr devoni” kabi she‘riy to‘plamlarida, urushdan keyingi yillarda qatag‘on bo‘lgan shoir, totuvlik uchun kurash, Vatanga fidokorlikni kuyladi.

1958 yili adibning “Toshkentnoma” lirik dostoni yaratildi. Ushbu doston qadimiy va ayni chog‘da zamonaviy Toshkent shahriga bag‘ishlangan. Shayxzoda nafaqat lirik shoir, balki, iste‘dodli dramaturg hamdir. 1960-yilda yozgan “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida buyuk o‘zbek olimi, munajjimi va ma‘rifatparvar hukmdori obrazini yaratdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Maqsud Shayxzoda Ozbarbayjon va O‘zbek xalq adabiyotining eng zabardast shoir va adiblaridan hisoblanadi. Mana necha yildirki ijodiy asarlari so‘ngan emas va qalbimizning tub tubidan joy olgan. 1-Prezidentimiz I.A. Karimov tashabbusi bilan Maqsud Shayxzoda nomiga medal, order, va stipendiyalar joriy etilgan. Uning asarlari va hayotiga qiziquvchi yoshlarimiz juda ko‘p va bundan



# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

keyin ham kamaymaydi . Maqsud Shayxzodaning ijodi shu qadar qiziqki u faqat bir yo‘nalishda emas balki turli xil yo‘nalishlarda juda qiziq faoliyat ko‘rsatgan.

## Фойдаланилган адабиётлар

1. Mamurova, F. I. (2021, May). ARTIST OF UZBEKISTAN MAKSUD SHEIKHZADE. In E-Conference Globe (pp. 176-178).
2. Mamurova, F. I., & ugli Abdubahabov, A. A. (2023). TWO FOLK POETS. "TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE", 1(3), 23-30.
3. Islomovna, M. F., & Abduvoxob o‘g‘li, A. A. (2023, January). Maqsud Shayxzodaning Hayoti Va Ijodi. In Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences (USA) (pp. 19-20).
4. Mamurova, F. I. (2021, May). ARTIST OF UZBEKISTAN MAKSUD SHEIKHZADE. In E-Conference Globe (pp. 176-178).
5. Тошев И. И., Абдуллаев С. С. Мемориальный комплекс Бахоуддин Накшбанди в Бухаре //Universum: общественные науки. – 2022. – №. 2 (81). – С. 11-14.
6. Тошев И. И., Абдуллаев С. С. Торговые купола Бухары //Интернаука. – 2018. – №. 14-1. – С. 31-33.
7. Тошев, И. И., Абдуллаев, С. С., & Бадриддинов, С. Н. (2022). Популярные памятники и достопримечательности Бухары (минарет Калян, торговые купола). *Universum: общественные науки*, (2 (81)), 7-10.
8. Абдуллаев, С. С., Бакаев, Ш. Ш., Остонова, Г. Р., & Шарипов, Ш. Ш. (2021). Орнаментальная символика в народном декоративно-прикладном искусстве Бухары. *European science*, (2 (58)), 17-19.
9. Абдуллаев, Сухроб Сайфуллаевич. "ЭСТЕТИКА ЦВЕТА В ВОСПИТАНИИ ПЛАСТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ АРХИТЕКТОРА." *PEDAGOGS journali* 1.1 (2022): 384-386.
10. Абдуллаев С. С., Шарипов Ш. Ш. ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА СТУДЕНТОВ СРЕДСТВАМИ НАРОДНОГО ДЕКОРАТИВНО-ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА //XXI ASRDA INNOVATION TECHNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 5. – С. 80-85.
11. Абдуллаев С. С. РОЛЬ СРЕДНЕВЕКОВОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ВОСТОКА В СОЗДАНИИ СЮЖЕТОВ МИНИАТЮРЫ СРЕДНЕЙ АЗИИ //Inter education & global study. – 2023. – №. 2. – С. 100-108.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

12. Laue S., Abdullaev S. S. Legends and True Stories about the Samanid Mausoleum //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 308-311.
13. Botirov, J. S., Bakaev, S. S., Avliyakov, M. M., Shirinov, A. L., & Abdullaev, S. S. (2021). The same goes for art classes in private schools specific properties. *Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol, 27(2)*.
14. Abdullayev<sup>1</sup> S. F., Abdullayev S. S. TRANSLATION OF CULTURAL VALUES IN THE ARTISTIC HERITAGE OF TRADITIONAL APPLIED ARTS OF BUKHARA.
15. Абдуллаев С. С. РОЛЬ СРЕДНЕВЕКОВОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ВОСТОКА В СОЗДАНИИ СЮЖЕТОВ МИНИАТЮРЫ СРЕДНЕЙ АЗИИ //Inter education & global study. – 2023. – №. 2. – С. 100-108.
16. Jurayevich J. K., Sayfullayevich A. S. THE UNIQUE OF BUKHARA JEWS IN THE DYE INDUSTRY AND WEAVING CRAFT //Euro-Asia Conferences. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – С. 48-53.
17. Sayfullayevich A. S. CHALLENGES OF TRAINING FINE ARTS TEACHERS IN THE PRESENT //International Conference on Research Identity, Value and Ethics. – 2023. – С. 348-353.
18. Abdullaev S., Mamatov D. Pedagogical foundations in the teaching of folk arts and crafts of Uzbekistan in the training of teachers of fine arts //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 420. – С. 10019.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

## ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА ШАКЛЛАНАЁТГАН ЎСМИР ШАХСИДА ИЖТИМОЙ ТАРМОҚЛАР ҲАҚИДА ТУШУНЧА

**Шакаршоҳ МУҚИМОВ**

*Осиё халқаро университети магистранти*

**Annotatsiya:** Интернет бугунги кунда қулай фаолият жараёни ўзаро танишиш, билдириш, дўстлашиш учун тузилган. Ижтимоий тармоқлардан ҳар бир инсон қизиқиши ва манфаатига кўра фойдаланади. Баъзи инсонлар ундан роҳат-фароғат излайди ва қимматли вақтини йўқотиб, кераксиз нарсалар билан банд бўлади. Шу сабабли, бугунги кунда турли кўринишдаги ахборот воситаларининг нозик жиҳатларини ҳар бир онгли киши англаб етиши лозим. Ушбу мақолада ижтимоий тармоқларнинг ёшлар маънавиятига қандай таъсир кўрсатишининг баъзи масалалари фалсафий таҳлил этилган.

**Калит сўзлар:** ёшлар, маънавият, ёшлар маънавияти, тафаккур, фаоллик, ижтимоий тармоқлар, Интернет, интернетга қарамлик.

## РОЛЬ И ХАРАКТЕРИСТИКА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ У ЧЕЛОВЕКА ПОДРОСТКА, СФОРМИРОВАННАЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

**Шакаршоҳ МУҚИМОВ**

*Магистрант Азиатского международного университета*

**Аннотация:** Социальные сети создаются для взаимного знакомства, оповещения, дружбы. Каждый пользуется социальными сетями по своим интересам и интересам. Некоторые люди ищут в этом удовольствия, тратят свое драгоценное время и занимаются ненужными вещами. Поэтому каждый сознательный человек сегодня должен понимать нюансы различных форм носителей информации. В данной статье философски анализируются некоторые вопросы того, как социальные сети влияют на духовность людей.

**Ключевые слова:** действия, духовность, духовность действий, мышление, активизм, социальные сети, Интернет, интернет-зависимость.

## THE ROLE AND CHARACTERISTICS OF SOCIAL NETWORKS IN A TEENAGE PERSON FORMED UNDER GLOBALIZATION

**Shakarshox MUQIMOV**

*Graduate student of Asian International University*

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

**Abstract:** Social networks are created for mutual acquaintance, notification, friendship. Everyone uses social networks according to their interests and interests. Some people seek pleasure from it and waste their valuable time and get busy with unnecessary things. Therefore, every conscious person should understand the nuances of various forms of information media today. In this article, some issues of how social networks affect the spirituality of people are analyzed philosophically.

**Key words:** actions, spirituality, spirituality of actions, thinking, activism, social networks, Internet, Internet addiction.

Маълумки, дунё аҳолисининг тахминан 40% интернетдаги ижтимоий тармоқлардан фойдаланади. Биз ҳар куни ижтимоий тармоққа ўртача икки соат вақт сарфлаймиз: ёзувлар нашр этамиз, фотосуратлар алмашамиз, дўстларимизнинг хабарларига муносабат билдирамиз. Ҳар дақиқада ижтимоий тармоқ фойдаланувчилари Snapchat-га ярим миллионга яқин твит ва фотосуратларни юборишади. Агар ижтимоий медиа бизнинг ҳаётимизда бундай катта рол ўйнаса, унда бу бизга қандай таъсир қилишини тушуниш жуда муҳимдир.

Аслида ижтимоий тармоқларнинг асосий вазифаси дастлаб ташкил этилган пайтларда одамларга узоқдаги таниши билан алоқа қилиш, улар ўртасида ўзаро онлайн мулоқотни йўлга қўйиш эди. Бироқ бугун уларнинг функциялари тобора кенгайиб бормоқда. Энг аввало, ёшлар онгига ва маънавиятига таъсир кўрсатишнинг қудратли ахборот-сиёсий воситасига айланмоқда. Ушбу мақолада илгари сурилган мавзунинг долзарблиги ҳозирги кунда қарама-қаршилик мавжудлигидан келиб чиқади. Яъни, бир томондан, замонавий ёш инсонни ижтимоий тармоқларсиз тасаввур қилишнинг иложи йўқ, бошқа томондан, таъсирни кузатиб бориш қийин ижтимоий тармоқлар ёшларни шакллантириш, маънавий ва ахлоқий фазилатларни тарбиялаш бор. Шу жиҳатдан, бугунги кунда ахборот технологиялари инсон фаолиятининг барча соҳаларига татбиқ этилмоқда. Ёшлар, айниқса, Интернетда ҳимоясиздир. Жаҳон тармоғида доимий иштирок этиш, ота-оналар назорати йўқлиги, болаларнинг ахборот маданиятини билмаслик кўпинча ўспиринларнинг Интернетга қарам бўлишига олиб келиши мумкин.

Ёшлар маънавияти масаласи нафақат бугунги кунда балки олдинги даврларда ҳам муҳим ва аҳамиятли муаммолар тарзида эътибор берилган. Айниқса, ёшлар маънавиятини шакллантириш муаммоси турли даражадаги жамият ва фалсафа, психология, социология каби фанларнинг ихтисослашуви билан боғлиқ бўлган гуманитар билимларнинг бирлашмасидан иборат.

Ёшлар маънавиятини шакллантириш билан боғлиқ муаммолар муаллифлар томонидан дунёқарашнинг турли позициялари, маданий ва тарихий анъаналари ва мактаблари, услубий ва концептуал асосларидан кўриб чиқилган. Хусусан, рус файласуфлари Д.М. Азаматова, Р.Г. Апресян, А. И. Арнолдов, Е. А. Баллер, О. А. Беленкова, Б.С. Галимова, Д. Ж. Валеева, А.А. Валков, У. С. Вилданова, Г. Н. Волков, В. Е. Давидович, Ю. А. Жданов, М. Т. Иовчук, В. В. Куравлев, Н.С. Злобин,

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

Л. Н. Коган, Г. Г. Квасов, И.К.Кучмаева, Е. С. Маркарян, В. М. Межуев, Е. А. Орлова, С. М. Поздьева, Ф.Б. Содиқов, Ф.А.Хазиев ва бошқаларнинг асарлари киритиш мумкин.

Глобаллашув шароитида маънавий масалалари, ёшлар маънавияти, маънавий қадриятлар ва маънавий янгиланишнинг хусусиятлари мустақилликнинг дастлабки йилларида Т.Маҳмудов, Ж.Туленов, С.Шермухамедов, А.Жалалов, Э.Юсупов каби атоқли олимлар томонидан ўрганилган бўлса, ҳозирги маънавий янгиланишнинг турли жиҳатлари Б.Алиев, С.Отамуродов, С.Бердикулов, Д.Норқулов, А.Умаров, Ш.Мадаева, С.Мамашокиров, Ж.С.Раматов, М.Қаҳҳарова, Г.Туленова, С.Рахимов ва бошқалар томонидан тадқиқ этилмоқда.

Ижтимоий тармоқларнинг ёшлар маънавиятига, тафаккурига, онгига таъсири масаласининг баъзи бир жиҳатларини ўрганган олимлар қаторига инглиз олимларидан Петер Э.Маеух, Стеве Жонес, рус олимларидан Е.Вайнер, Е.Горний, В.Паско, В.Сухарова, О.Криштановская, шунингдек, ўзбек олимларидан филология фанлари номзоди Д.Рашидова, файласуфлардан Ж.Раматов, И.Саифназаров, А.Мўминов, А.Мухторов, Б.Хусанов, Г.Ғаффарова, Н.Сайдалиева, К.Мавлянова қабилар томонидан нашр этилган мақолаларни киритиш мумкин.

Мақолани тайёрлашда тарихийлик, танқидийлик, тизимли методлардан фойдаланилди.

"Ижтимоий тармоқ" тушунчаси 1954 йилда пайдо бўлган бўлиб, ўтган асрнинг 30-йилларида ўрганиш бошланган. Ушбу концепцияни социолог Жеймс Барнс киритган: "ижтимоий тармоқ" бу ижтимоий объектлар (одамлар ёки ташкилотлар) ва улар ўртасидаги алоқалар (ижтимоий муносабатлар) бўлган тугунлар гуруҳидан иборат бўлган ижтимоий тузилишдир. Оддий қилиб айтганда, бу таниш одамларнинг маълум бир гуруҳи, бу ерда одам ўзи марказ бўлиб, дўстлари эса филиаллардир.

Компьютер технологияларидан фойдаланган ҳолда биринчи ижтимоий тармоқ 1971 йилда ARPA Net-да ҳарбийлар томонидан ишлатилган электрон почта технологияси эди. Кейин, 1988 йилда фин талабаси Ярко Ойкаринен реал вақтда мулоқот қилиш имкониятини яратган «IRC» технологиясини (инглизча Internet Relay Chat – узатиладиган интернет-суҳбат) ихтиро қилди. 1991 йилда инглиз олими Тим Бернерс-Ли туфайли оммалашган Интернет ихтироси муҳим воқеа бўлди.

1995 йилда Рэнди Конрад Classmates.com - замонавий маънода биринчи ижтимоий тармоқни яратди. Концепция жуда катта талабга айланди ҳамда шу йил Интернетдаги ижтимоий тармоқларнинг жадал ривожланиши бошланади. Бугунги кунда ушбу тармоқ ҳали ҳам дунёдаги энг машҳур тармоқлардан бири бўлиб, 50 миллиондан ортиқ фойдаланувчига эга.

Ижтимоий тармоқларнинг кенг миқёсида оммалашуви 2004 йилдан кейинги даврга тўғри келади. Шу йили АҚШ да кейинчалик дунёга машҳур бўлган —Facebook жамоатчилик тармоғига асос солинди.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

Ёшлар маънавиятини шакллантириш, ахлоқий тақдирни белгилаш ва умумбашарий инсоний қадриятларни дунёга жорий этиш муаммоси кўплаб авлод тадқиқотчилари томонидан ишлаб чиқилган абадий масалалардан биридир. Маънавият мавзусини қамраб олган илмий адабиётлар жуда кўп, турли хил таърифлар, талқинлар ва тадқиқот йўналишларини ўз ичига олади. Ушбу муаммони ўрганишга ёндашувларнинг хилма-хиллиги, асосан, маънавиятнинг умумлаштирилган назариясининг йўқлиги билан боғлиқ.

Жамиятнинг махсус гуруҳи сифатида ёшларга илмий ёндашиш, ёшларнинг турмуш тарзи ва маданиятининг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, гуманитар фанлар бўйича кўплаб маҳаллий олимларнинг асарларида ўз аксини топган. Ҳозирги президентимиз Ш.Мирзиёевнинг —Миллий тикланишдан — миллий юксалиш сари|| асарида ёшларни маънавий етук инсон этиб тарбиялаш, чинакам маърифат ва юксак маданият эгаси бўлиш узлуксиз ҳаётиш эҳтиёжга айланиши, ёшлар билими, савиясини ошириш учун илм-маърифат, юксак маънавият кераклиги илгари сурилган [2].

М.Қуронов, А.Қодиров, Ш.Акрамовалар томонидан —Ёшларда мафкуравий иммунитетни шакллантириш|| монографиясида ёшларни этиб тарбиялаш, уларда мафкуравий иммунитетни шакллантириш, ижтимоий тармоқлардаги ёт ғоялар таъсирига тушиб қолишининг олдини олиш каби масалалар таҳлил этилган[10].

Г.Ғаффарова ижтимоий тармоқларнинг ёшлар тафаккури ва фаоллигига таъсири, ахборотлашган жамиятда маънавиятдаги ўзгаришлар, янгиланаётган Ўзбекистонда инсон капиталини ривожлантиришда маънавиятнинг ўрнини [6-9] ёритиб берган.

XXI асрда замонавий ахборот-коммуникация технологиялари, хусусан, интернетнинг ҳаётимиздаги ўрни ва аҳамияти шиддат билан ошиб бормоқда. Албатта, интернет орқали дунёнинг исталган нуқтаси билан тезкор алоқа ўрнатиш, зудлик билан зарур ахборот ва маълумотларни олиш, билим ва маърифатни оширишда унинг беқиёс ўрни ва аҳамияти бор. Шунингдек, Интернетнинг пайдо бўлиши билан ҳаётнинг жуда кўп соҳаларида, жумладан, кундалик маиший хизматлардан тортиб, бизнес ва менежмент, юридик ва консуллик хизматлари ва хатто давлат бошқарувигача бирин-кетин виртуал дунёга кўча бошлади.

Мутахассисларнинг фикрича, замонавий жамиятда ижтимоий тармоқлардан фойдаланишнинг асосий устунлиги мулоқот эркинлиги ҳисобланади. Дарҳақиқат, бугун ижтимоий, маданий, иқтисодий ва сиёсий барча-барча соҳаларда глобал тармоқнинг чексиз-чегарасиз имкониятларини ҳисобга олмаслик, ундан маълум мақсадлар йўлида фойдаланмаслик, таъбир жоиз бўлса, замондан орқада қолиш, деганидир. Бу масала бевосита ёшлар фаолияти ва маънавиятига ҳам дахлдор.

Хўш, ижтимоий тармоқлар нима? У ёшлар тафаккури ва фаолиятига ҳамда ёшлар маънавиятига қандай таъсир қилади?

Википедия сайтида таъкидланишича, ижтимоий тармоқ «мулоқот қилиш, танишиш, қизиқишлари ўхшаш ёки офлайн алоқада бўлган одамлар ўртасида

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

ижтимоий алоқаларни яратиш, шунингдек кўнгил очиш (музыка, филмлар) ва иш учун ишлатиладиган онлайн платформа»дир. Дарҳақиқат, ижтимоий тармоқлар виртуал олам интернетдаги худди шундай «ари уяси»дир. Улар пайдо бўлганига унчалик кўп бўлгани йўқ. Ушбу тармоқда дастлаб қизиқишлари ёки касблари бўйича бирлашган бўлса, ҳозирги кунда бу гоё кенгайиб, дўстлар, танишлар, ҳамкасблар уларга қўшила бошладилар.

Ҳозирда йирик ижтимоий тармоқларда фойдаланувчилар сони миллионлаб, миллиардлаб кишига етган. Улар ўзаро мулоқот қиладилар, сайтларга ўзларининг, яқинларининг фотосуратлари, видеоларини қўядилар, у ёки бу мавзуда фикр алмашадилар. Кимлардир бу сайтларда ўзларининг унут бўлиб кетган танишларини, болаликдаги дўстларини топадилар.

Дарҳақиқат, ижтимоий тармоқларда фақат дўстлар, танишларнигина эмас, хатто машҳур инсонларни ҳам учратиш мумкин. Юлдузлар ўз саҳифаларини очиб, унда ҳаётларидаги қизиқарли воқеаларни ёзадилар, суратларни бериб борадилар. Шу билан бирга тармоқлар ичида кўплаб ҳамжамиятлар очилган – уларни исталган фойдаланувчи ўз қизиқишига қараб очиши ва дўстларини таклиф қилиши мумкин. Ҳамжамиятларнинг мавзулари хилма-хил – футбол, тикувчилик, автомобил ва ҳ.к. Шундай қилиб, инсоният нимага қизиқса, ҳаммаси мавжуд. Ҳамжамият ичида унинг аъзолари ўзаро фикр алмашадилар. Баъзи ҳамжамиятларга истаган киши аъзо бўлиши мумкин, баъзилари эса ёпиқ саналиб, унга фақат аъзолардан бирининг тавсияси билан ёки ҳамжамият маъмури рухсати билан қўшилса бўлади.

Айтиш керакки, ижтимоий тармоқлар бугунги кунимизнинг энг асосий вақт ўтказувчи омили ҳисобланади. Айниқса ёшлар ижтимоий тармоқлар касалига учрашган. Бизнинг диёримизда дастлаб энг асосий ижтимоий тармоқ сифатида —однокласники|| ижтимоий тармоқ кенг оммалашган. Дарҳақиқат, Однокласники ижтимоий тармоғи синфдошларни - лицей (коллеж) курсдошларни, институт (университет) курсдошларни, қариндошларни, ҳамкасабаларни хуллас яқин дўстларни топиб, улар билан гаплашишга имкон берувчи кўптилли тармоқ ҳисобланади [4, 6]. Бу ижтимоий тармоқ 2006 йилда ишга тушган. Унинг тузувчиси россиялик веб-дастурчи Алберт Попков ҳисобланади. Сайт фойдаланувчиларнинг асосий ёши 14-55 ёшни ташкил қилади. Дастлаб бу сайтдан рўйхатдан ўтиш пуллик бўлган, кейинроқ 2010 йилдан бу хизмат бепул деб эълон қилинган.

Энг муҳими, ижтимоий тармоқлар ёшларнинг анъанавий мулоқот шаклини тубдан ўзгартириб юборди. Олис масофадан туриб нафақат эшитиб, балки кўриш имкониятининг юзага келиши виртуал суҳбатларни кескин оммалаштирди. Кейинги 15-20 йил давомида дунё мамлакатлари аҳолиси, шу жумладан, ўзбекистонлик ёшлар ҳаётида мобил алоқа урф тусини олган бўлса, ҳозирги даврга келиб мобил ускуналардаги WhatsApp, ICQ, MSN Messenger ва Telegram орқали матнли мулоқот оммавийлик касб этмоқда.

Айниқса, facebook тармоғидаги турли гуруҳлар фойдаланувчилар орасида обрў қозонди. Бу тармоқдаги гуруҳларда одамлар орасидаги турли вазиятлар

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

муаммолар кўриб чиқилиб, маълум вақтда ҳал қилинмоқда. Шу билан бирга *instagram* ҳам ёшлар орасида машҳур бўлиб, унда асосан ёшлар кундалик ҳаётидаги воқеаларни фото ва видео орқали ёритиш урф бўлган. Қайд этиш керак, бугунги кунда дунё аҳолисининг қарийб ярми – яъни 3 млрд.га яқин киши турли ижтимоий тармоқлардан фойдаланмоқда. Шулардан энг катта қисми – 2 млрд. одам —*Facebook*да. <https://napoleoncat.com> сайти берган маълумотга кўра, Ўзбекистонда —*Facebook* тармоғидан фойдаланувчилар 1 миллионга яқинлашиб қолган [5]. Улар ўртача 25-34 ёшда бўлиб, 65,5 фоизини эркаклар, 34,5 фоизини хотин-қизларимиз ташкил этар экан.

Айни пайтда дунёда 1 млрд.лик аудиторияга эга *Instagram* Ўзбекистонда 1.586.500 нафар фойдаланувчига эга. 2.476.590 лик *Facebook* эса мамлакатимизда 686.400 кишини бирлаштирган. 200 млн.лик *Telegram* – Ўзбекистонда 18 млн. кишига хизмат кўрсатмоқда [11].

Айтиш мумкинки, ижтимоий тармоқ деганда кўз олдимизга ҳозирги кун таърифи билан айтадиган бўлсак Виртуал олам деган тушунча келадиган бўлиб қолди. Ҳозирги кунда ижтимоий тармоқларнинг сони кўпайгандан кўпайиб бормоқда, бу ўз навбатида жамиятга катта таъсирини бериб келмоқда. Ижтимоий тармоқлар шундай кучга эга бўлдики узоқдаги дўстингни яқинлаштириб, яқиндаги дўстингни узоқлаштиришга олиб келди. Бу ўз навбатида жамият аъзолари орасида саросима ва бетартибликни келтириб чиқармоқда. Лекин ижтимоий тармоқлар ҳозирги кунда ёшларга кенг имкониятларни ҳам яратиб бермоқда. Жумладан, турли давлат ёшлари бир-бирлари билан фикр алмашиб саволларига жавоб топишда, катта ютуқларга эришишда ижтимоий тармоқларнинг беқиёс ёрдамлари фойда бериб келмоқда. Шу сабабли ёшларнинг онгини ва ниятини тўғри йўналтира олишни ўргатсак ижтимоий тармоқлардан ҳам керакли натижаларни олсак бўлади.

Шуни тан олиш керакки, ижобий томонлари билан бир қаторда унинг салбий томонлари ҳам мавжуд. Чунки оммавий алоқа воситалари орқали онгни ва ақлни эгаллаш таҳдиди мавжуд экан, жиддий қўрқув учун асослар мавжуд. Муаммони, айниқса, ижтимоий тармоқларда салбий маълумотлар оқимининг кўпайиши кучайтирмоқда. Сабаби, ёшлар ўзларининг тажрибасизликлари сабабли келган маълумотларни таҳлил қилиш ва синтез қилишга қодир эмаслар. Эҳтимол, ёлғон ва холис маълумотлар уни осонликча йўлдан оздириши мумкин.

Шу ўринда савол туғилади, Нега ижтимоий тармоқларда асосиз янгиликлар ва ғийбат тарқатилмоқда? Нима учун аҳоли, асосан ёшлар, уларга ишонишади? Бунда давлат органлари, муассаса ва ташкилотларнинг матбуот хизматлари ҳам айбдор. Агар бирор жойда бирор нарса юз берса, бу жараён ҳақидаги маълумотлар гувоҳлар, кузатувчилар томонидан Интернет орқали тарқатилади. Аслида, бундай вазиятларда айнан матбуот хизматлари маълумот беришлари керак. Улар туну кун фаол ишлашлари керак.

Шундай қилиб, ижтимоий тармоқларнинг одамлар ҳаётига таъсири жуда катта, кўпчилик бу ҳодисанинг кўламини тўлиқ англамайдилар ва ахир ижтимоий



# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

тармоқлар аллақачон Интернетдаги энг оммабоп фаолиятдир. Бугунги кунда дунёдаги энг кўп ташриф буюриладиган 100 та сайтдан 20 таси классик ижтимоий тармоқлар, яна 60 таси у ёки бу даражада ижтимоийлашмоқда. Дунё бўйлаб компанияларнинг 80% дан ортиғи ўз ишларида ижтимоий тармоқлардан фойдаланадилар. Одамларнинг 78 фоизга яқини ижтимоий тармоқлардаги маълумотларга ишонади.

Ижтимоий тармоқларнинг ёшлар маънавияти ва тафаккурига кўрсатаётган ҳам ижобий ҳам салбий жиҳатларини таъкидлаш лозим. Биринчидан, ижтимоий тармоқларнинг ёшлар маънавиятини ривожлантиришга таъсир этадиган ижобий хусусиятларига хайрия тадбирлари ташкил этиш, ёшларни уюштириш, имконияти бор кишиларни шу ишга жалб этиш, дўстлар орттириш, ёшлар ўзларининг фаолиятларига тегишли маълумотларни олиш, узатиш кабиларни киритиш мумкин.

Иккинчидан, ижтимоий тармоқларнинг ёшлар маънавиятини ривожлантиришга таъсир этадиган салбий хусусиятларига ахлоқсизлик, фахш, бузуқликни тарғиб қилувчи сайтлар ва уларнинг саҳифалари кенг ёйилгани; миш-миш, ёлғон, уйдирмалар, бузғунчи ғоялар, сохталаштириш, тарафкашликнинг ёйилгани; эълон қилинган айрим мақолаларда ишончли манбаларнинг йўқлиги, қайси китоб ёки сайтдан олинганлиги, ким ёзганлиги ҳақида маълумотнинг йўқлиги, бировларнинг ҳақларини поймол этиш, уларнинг ёзган мақолаларини ўзлаштириб олиб, маънавий, интеллектуал ҳуқуқларнинг бузилиши содир бўлиши; ушбу тармоқларда инсоний алоқалар заифлашади, юзма-юз кўришиш бўлмагани учун ўзаро меҳр камаяди, воқеликдан узилиб қолиш юз беради, оилавий аҳилликка салбий таъсир қилиши; ёшларнинг ижтимоий тармоқлардан нотўғри фойдаланиши вақтнинг исроф бўлишига, керагидан ортиқ фойдаланиш эса, унга ўрганиб қолиши; мақтанчоқликнинг ёйилгани, яъни ижтимоий тармоқ фойдаланувчилари кийган кийимлари, еган овқатларини ўз саҳифаларига жойлаштиришлари оқибатида мақтанчоқлик, барчанинг эътиборида, диққат марказида бўлиш хоҳиши кучайиб, камбағал, ночор аҳволда яшаётганларнинг ҳис-туйғулари эътиборга олинмайдиган кайфият юзага келади.

Шу билан бирга, ижтимоий тармоқлар қуйидаги хавфли таъсирларга эга: интернет тармоғига боғланиб қолиш; ўқиш ва билим олишга энгилтаклик билан муносабатда бўлиш (Интернетдан тайёр дарс ишланмалари, математик масалалар ечимларини осонгина топиш ҳисобига дарс топшириқларини мустақил бажармаслик); жисмоний ривожланишига салбий таъсир хавфи, яъни боланинг фаол ҳаракатда бўлмай, узоқ вақт монитор рўпарасида ўтиришига тўғри келиши ва бошқалар.

